

YANGI O'ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 95 (1694), 2026-yil 12-may, seshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



Usmon AZIM,
O'zbekiston xalq shoiri

RIYOSIZ SO'ZLAR

Buyuk o'zbek yo'li

Muqaddima

Haqiqiy yozuvchi-shoirlar haqiqatni yozishni xush ko'radi. Dunyoning qaysi bir chetidagi adolatsizlik ularga xuddi o'zining uyida ro'y berayotgandek tuyuladi. Qaydadir adolatning barqarorligi yoki g'alabasi ularning ruhiyatini ko'taradi. Ular har bir yaxshi odamning muvaffaqiyatidan quvonadi, odamlarning muammolari esa ularning ham dardiga aylanadi.

Ular — vatanparvar. Har holda O'zbekistonda xuddi shunday. Vatanning gullab-yashnashi, ijobiy o'zgarishlar har bir fuqaroning hayotini yuksaltirish sari qo'yilgan qadam ekanini teran his qiladilar, kayfiyatlarini ko'taradilar. Xudoga ming shukrki, bu o'zgarishlar har soatda, har kuni ro'y berib turibdi. Butun mamlakat harakatda. Eng muhimi, bu islohotlar joydari tusda emas, balki jahonning eng ilg'or texnologiyalari asosida olib borilmoqda. Sharoitlar yaratilgani tufayli investitsiyalar bemalol kirib kelyapti. Rivojlanish shiddati butun mamlakatni qamrab olgan.

Qalam ahli bu va ko'plab boshqa yutuqlardan boxabar. Muammolarni bartaraf etish yo'lidagi sa'y-harakatlarni ham mudom sezib turadi.

Yaqinda bir guruh ijodkorlar bilan qo'shni do'st mamlakatda safarda bo'ldik. Bir kech o'z-o'zidan badiha davra tuzilib, suhbat gurillab ketdi. Avval mezbon mamlakatni O'zbekiston bilan taqqos qila boshladik. Baravariga "Biz oldinga ketibmiz" degan xulosaga keldik! Bugungi O'zbekiston haqida gaplashdik. Men yetmiş olti yil umr ko'rganimni, ammo xalqimiz hech qachon bunday yayrab yashamaganini aytib qoldim. Davradagilar bu gapimni ham bir og'zidan tasdiqladi. Ha, shunday! Hech qachon bunday yashamaganimiz!

Yuraklarni faxr bilan to'ldirgan bu e'tiroflar qachon ko'nglimizni to'ldirdi? Axir biz e'tirof etgan yutuqlar o'z-o'zidan paydo bo'lgani yo'q-ku!

Uning ortida kimning mehnati-yu zahmati, betinim harakati yotibdi?

Mamlakatimizning barcha hududida yo'yilgan bunyodkorlikka kim g'ayrat-shijoat bag'ishlayapti?

Savollarga javob bitta: bu olamshumul zafarlarning ortida bir kishining, ha, bir kishining — O'zbekiston Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning fidokorligi turibdi.

Oz emas, ko'p emas, Yangi O'zbekistonni qurmoqchi bo'lgan shu azamat insonning misli ko'rilmagan fidokorligi!

Men bu inson haqida ko'p o'yladim. Oxiri, bu odam haqida yozmasam, adolatdan bo'lmas ekan degan qarorga keldim.

Yo'q, xushomad qilish niyatim yo'q. Nima-ga xushomad qilaman? Yoshim bir joyga borgan bo'lsa, mukofot-u unvonlarni ham hech kimga likillamay olgan bo'lsam...



1

Bu islohotlar boshlanganda mamlakat qay ahvolda edi?

Odamlar qanday yashayotgan edi?

O'zlimning boshimdan o'tkazganlarimni bir eslay.

Men ko'p qavatli uyda yashayman. Uyimiz necha-necha qishlar bo'yi isimasdi. Bir farzandim keyinchalik "Shu uyda bir umr sovuq qotib ulg'aydik", deb esladi.

Nafaqaga chiqdim. "Ishlasang, nafaqangning yarmi to'lanadi", deyishdi. Nima deyman? Xo'p-da... Ko'p'ga kelgan to'y.

Maosh hemiri. Yarim pensiyaga qo'shib, oydan oyga arang yetkazamiz.

To'lov plastik kartasi bilan bog'liq mash-mahalarni-ku, aytmay. Do'konga borasan. Kerakli molning narxini so'raysan. "Naqd ol-sangiz, sakson so'm, plastik karta bilan to'la-sangiz, yuz..."

Denovda — bozorning naq o'rtasida "plastik kartadagi pulni naqda almashirish punkti" ochildi. O'sha bezbet shaklda — yuz so'm yechib olishsa, sakson so'm qo'linga berishadi. Eng dahshati, bu "punkt"ni bunday hollar yuz bermasligini nazorat etuvchi tashkilotlarning odamlari yuritdi. Dodingni kimga aytishni bilmasan...

Bu lo'ttibozliklar butun xalq ko'z o'ngida ro'y berdi. Hech kim miq etolmadi. Qo'rquv. Bu qo'rquvdan yaralgan taqdirsizlik — ertani

o'ylashdan cho'chish — mudom yelkadan toshday bosib turdi.

Qarz ko'tardim. Dollarda qarz berganlarga dollarda qaytarib berish kerak. Bank kas-salarining yoniga ham borolmaysan. Banklar dollarni sotuvga chiqarib, o'zi sotib olib yotibdi. Odamlarini qo'yib qo'ygan — allaqanday shang'ixotinlar...

Bozorga borasan. Har qadamda "dollar-chi"lar shaykasi... Dollarning narxi ras-miy kursdan ikki barobar baland. Ko'r bo'lib olasan.

Surxondaryoda g'alla yetishtirgan bir tadbirkor menga uchrashib, g'allasini topshirganini, ammo haqini yeb ketishganini aytdi. Men bir-ikki almaldorga aytgan bo'ldim. Biror natija chiqmadi. Tadbirkor shu xo'rlik-ning jabridan o'lib ketdi...

U-bu joylardagi o'zgarishlar odamlarning dasturxoniga yetib kelmadi. Mamlakatni frir-barlar bosdi.

Bu ishga qarshi kurashishi zarur bo'lgan tashkilotlar davlat ichida davlat tuzdilar. Odamlar ustidan zo'ravonlik joriy etildi.

Masalan, Surxondaryoda xavfsizlik xizma-ti allaqanday fashistik (boshqa so'z ularning qilmishini ifodalab berolmaydi) tizim o'rnatdi. Odamlarni pashsha o'rinda ko'rmadilar. Xo'rladilar, mulklarini tortib oldilar, misli ko'rilmagan qiynoqlarga soldilar, o'dirib ham yubordilar. Qiynoqlarning Stalin zamonida kechgan usullarini qo'lladilar. Ularni yanada yangi "pog'onalar"ga ko'tardilar.

Tirnoqlarimni sug'urib oldilar, — deb zorillab eslaydi ularning qo'lga tushgan bir begunoh. — Hammasini baravar sug'uradilar ham mayli edi, har kuni bittasini sug'uradilar...

Hatto hokimlarga ham tazyiq o'tkazildi. Bu yurtda ular ham ishlashdan bezib qoldi. Noiloj ishdan ketish haqida ariza yozdilar.

Mustaqillikdan odamlarning ko'ngli qoldi. Bitta-yarim tanishlar menga ham ta'na qila boshladi: "Ana siz orzu qilgan istiqloq..."



Rosti, men ham bebaxt yashadim. Gazeta-jurnallarda yozganlarimni nashr etish nari tursin, ism-familiyamni ham o'chirib tashlaydigan bo'lishdi. Men nima qilgan edim? Bir ko'rsatuvda "Birovlar harom-xarish yo'l bilan pul to'playapti. Payti kelgach, pulini ko'tarib, xorij-ga jo'nab ketadi" degan rost gapni aytgan edim, xolos. Bu ko'rsatuv tufayli televideniye-dagi necha-necha ijodkorlar jazoland, ishdan ketdi...

Tan olaylik, mustaqillikning ilk davrida yangi tizimli mamlakatni bunyod etish, no-chorlikdan qutulish uchun bir qadar qattiqqo'lik ham zarur edi. Ammo mamlakat rivojlanib borgan sari bu qattiqqo'lik o'rinni adolat o'lchamlariga mos yo'riqlar asta-asta egallab borishi kerakligi ham barchaga ayon edi. Biroq bunday bo'lmadi. Chunki ega tepadagi odam ham nayrangbozlarining qo'lida asirday yashadi. Joylarda ro'y berayotgan, hatto o'z oila-sida ro'y berayotgan voqealardan ham g'afatda qoldi. Barcha adolatsizliklar sir tutildi.

Yuqoridagi yozganlarimni hech kim rad etolmaydi. Ularni bor bo'yicha ko'rsatish uchun esa necha jildlab kitoblar yozilsa bo'ladi. Men faqat boshimdan o'tkazganlarimning va tug'ilgan yurtim Surxondaryoda ro'y bergan mash'um voqealarning bir qisminingina eslayapman.

Avj olgan muammolarni bartaraf etish yo'l-larini hech kim bilmasdi.

Biroq Parvardigor bilguvchidir! U mamlakatni rivojlanish sari yo'naltirish uchun nima qilish kerakligini aniq bildi.

Mamlakat Prezidentligiga Shavkat Miromonovich Mirziyoyev saylandi va... bir-dan mo'jizalarga o'xshash hodisalar ro'y bera boshladi.

Aytib o'tganim — ko'rgiliklar bitta-bita yechimini topib ketaverdi. To'lov plastik kartalari risoladagiday ishlay boshladi. Pensiyalar to'liq beriladigan bo'ldi. Banklar yangicha ishlash tizimiga o'tdi: xohlasalar-ing, mana so'm, istasalar dollar, marhamat... Surxondaryodagi odam qiyofasidagi hayvonlar ham jazosini oldi. Ammo bu yechimlarni topish uchun qanchalar sabot va jasorat kerak bo'lgani faqat va faqat Shavkat Miromonovichning bir o'ziga ayon. Axir qal-lamga olganim hodisalardan tashqari, uning zimmasida yana qancha-qancha tashvishlar bor edi.

Birgina Surxon xalqini zor qaqshatgan mustaqillikning zararkunandalari shaykasini tugatish naqadar qiyin bo'lgani tasavvur qilaman. Axir ular osmondan tushmagan — bu gumrohlarni Toshkentdagi martabasi baland, beli baquvvat, birovni nazar-pisand qilmay-digan homiyolari qo'llab-quvvatlab turardi. Bu jinoyatchilar to'dasining ko'lami juda katta — bir-biri bilan zich bog'lanib ketgan, xalqning manfaati degan muqaddas tushunchani tushida ham ko'rman, odamlar hayotini xasdan ham arzon bilgan bedavolardan iborat edi. Avval mana shu to'daning boshi kesildi. Bu ish oson bo'lmadi. Bo'shangroq bir odam bo'lganda ular bilan murosai madora etib ketaverardi.

Ammo Shavkat Miromonovich bunday qilishni o'ziga ep bilmadi. Chunki o'rtada Vatani, xalq taqdiri bor edi. Bo'lajak Vatanni bunday to'dalarga panja orasidan qarab emas, balki bu toifa noqisarlardan tozalab, pokiza niyat va egzu harakatlar bilan yaratish lozimligini Shavkat Miromonovich mudom his etib turardi.

Vatanni halol odamlar yaratishini bu inson juda teran tushunadi.

Qotillik illati yuqqan bu kaslardan el-yurt ozod qilindi. Avval "tepa"dagi, keyin pastda-gi qatlam ilidzi bilan sug'urib tashlandi. Bu gaplar aytishga oson...

Mamlakatimiz tarixida ushbu voqealar kimgadir juda kichik epizod bo'lib tuyular, ammo Vatanni xalqning boshiga chiqib olgan bunday jirkanch to'dalardan ozod etish uchun rahbarimizga qanchalar matonat va qat'iyat kerak bo'lganini bir tasavvur qilib ko'ring!

Esimda: bu voqealar nihoyasiga yetkazil-gach, Prezidentimiz Surxonga tashrif buyurib, "Surxondaryo xalqi, endi ozodsan!" deb elga murojaat etgan edi.

Haqiqatan, Surxondaryo erkin nafas oldi.

Men faqat yaxshi bilganim — Surxondaryo haqida yozypman. O'zbekistonda esa o'n to'rtta ma'muriy-hududiy birlik bor. Prezidentimizning ulardagi muammolarni hal etishda-gi mardonavor sa'y-harakatini qalamga olish uchun esa bu maqola kichiklik qilishini sezib turibman.

Davomi 3-beta

O'zbekiston tashabbuslari — amalda

OSIYO XOTIN-QIZLARI II FORUMI: BARQAROR IQTISODIYOT ASOSI



Osiyo qit'asi keyingi 30 yilda iqtisodiyoti endigina rivojlanayotgan mintaqadan jahon moliyaviy, texnologik va demografik taraqqiyotining asosiy markazlaridan biriga aylandi. Bu davrda misli ko'rilmagan sanoatlashtirish, urbanizatsiya va turmush darajasi o'sishi qayd etildi.



Bugungi kunda dunyo iqtisodiyotida eng katta ulushga ega davlatlar ham aynan Osiyo mintaqasida joylashgan. Xususan, Xitoy "dunyo fabrikasi" o'laroq ulkan siljishni amalga oshirgan bo'lsa, Janubiy Koreya, Yaponiya va Osiyoning boshqa qator davlatlari yuqori texnologiyali davlat maqomini mustahkamladi.

Janubiy Koreya, Singapur, Gongkong va Tayvan so'nggi o'n yilliklarda tez rivojlanayotgan bozorlardan dunyoning eng boy va texnologik jihatdan o'ta taraqqiy topgan iqtisodiyotlari elitasiga aylandi. Xususan, Singapur va Gongkong jahonning yetakchi moliyaviy va logistika markazlari sifatida mustahkam o'rin egallagan bo'lsa,

Janubiy Koreya va Tayvan elektronika va yarimo'tkazgichlar ishlab chiqarishda global yetakchi hisoblanadi. Birgina Tayvan bugun dunyodagi eng zamonaviy chiplarning qariyb 90 foizini ishlab chiqaradi.

Davomi 2-beta

Mamlakatimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichi jamiyat hayotining barcha jabhasida tub burilishlar yasashni, chuqur tahlilga asoslangan uzoqni ko'zlovchi qarorlar qabul qilishni taqozo etmoqda. Davlatning iqtisodiy qudrati, xalqaro maydondagi nufuzi hamda xalq farovonligi, avvalo, shu yurtda shakllanadigan inson kapitalining sifat ko'rsatkichlariga bevosita bog'liq. Tarixga nazar tashlasak, har qanday buyuk tamaddun o'zining yuksalish davrida, ilk bor ilm-fan, ta'lim va tafakkur erkinligiga tayanganiga guvoh bo'lamiz.

INTELLEKTUAL SALOHİYAT VA GLOBAL INTEGRATSIYA UYG'UNLIGI


Prezidentimizning joriy yil 10-apreldagi "Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar tizimini takomillashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni aynan shunday tarixiy ahamiyatga ega bo'lib, milliy intellektual resurslarimizni yangi pog'onaga olib chiqishga xizmat qiluvchi muhim dasturlamal hujjatdir. Mazkur qaror o'zida oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining maqsadli ko'rsatkichlariga erishishni jadallashtirish, mamlakatimizni mintaqaning ta'lim xabiga aylantirish hamda oliygo'harlarning akademik mustaqilligini kengaytirishdek qamrovdor maqsadlarni mujassam etgan.

Davomi 5-beta



"JALOLIDDIN MANGUBERDI":

TARIXIY SHON-SHAVKAT,
JASORATDAN YARALGAN BUGUNGI
O'ZGARISHLAR TIMSOLI



OCHIQ VA ISHONCHLI STATISTIKA

MAMLAKATIMIZNING BU
BORADAGI YUTUQLARINI
JAHON E'TIROF ETMOQDA

4



O'zbekiston tashabbuslari – amalda

OSIYO XOTIN-QIZLARI II FORUMI:
BARQAROR IQTISODIYOT ASOSI

maqsadlarini amalga oshirish bilan bog'liq xalqaro, mintaqaviy va milliy tajriba hamda innovatsion yondashuvlarni, natijalarni muhokama qilish rejalashtirilmoqda. Bu ham juda muhim. Chunki endi xalqaro konvensiya va rezolyutsiyalar qog'ozda qolib ketmaydi. Ularning ijrosi aniq raqamlar va ko'rsatkichlar, ya'ni aynan hisobdorlik asosida tahlil qilinadi. Bunda eskirgan usullardan voz kechilib, xotin-qizlar huquqlarini himoya qilishda eng samarali va innovatsion tajribalar (raqamli texnologiyalar, yangi boshqaruv modellari) ommalashtiriladi.

Global va mintaqaviy o'zgarishlar xotin-qizlarning huquq hamda imkoniyatlariga qanday ta'sir ko'rsatayotgani hamda qaysi siyosatlar bu o'zgarishlarni inson kapitali va iqtisodiy rivojlanish akseleratorlariga aylantirayotgani bo'yicha umumiy tasavvurni shakllantirish ham ko'zda tutilgan. Butun hayoti mobaynida xotin-qizlarga investitsiyalar (ta'lim, ko'nikmalar, sog'liq, munosib bandlik, tadbirkorlik va moliyaviy imkoniyatlar) orqali inson kapitali rivojini qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shma global va mintaqaviy yondashuvlarni ilgari surish ham ishtirokchilar diqqat markazida bo'ladi.

Ilm-fan, ta'lim, innovatsiyalar, raqamli ko'nikmalar va sun'iy intellekt sohasida xotin-qizlar uchun yangi imkoniyatlar yaratish, jumladan, STEAM va texnologik tadbirkorlikda ayollar liderligini qo'llab-quvvatlashga forumda alohida e'tibor qaratiladi. Aholi o'sishi, demografik va ijtimoiy xavf-xatarlarni hisobga olgan holda xotin-qizlarning ijtimoiy himoya tizimlari va huquqiy kafolatlarini mustahkamlash, parvarish xizmatlarini rivojlantirish va haq to'lanmaydigan mehnat yukini kamaytirish orqali xotin-qizlarning iqtisodiy faolligini oshirish masalalari ham ko'rib chiqiladi.

Iqlim o'zgarishining oldini olish, moslashuv va ekologik barqaror rivojlanishda xotin-qizlarning ishtirokini kengaytirish, "yashil" transformatsiya va xavf-xatarlarni boshqarishda genderni sezgir yechimlar almashinuvi — forum dasturining yana bir ahamiyatli mavzusi.

Xotin-qizlarga nisbatan zo'raonlikka, jumladan, raqamli zo'raonlikka qarshi kurashish bo'yicha global va mintaqaviy hamkorlikni yo'lga qo'yish, onlayn xavfsizlikni ta'minlash va kibermakonda ayollar huquqlarini himoya qilish haqida ham so'z yuritiladi. Bunda profilaktika, tezkor javob choralarini, huquqni qo'llash amaliyotini rivojlantirish va raqamli savdonlikni oshirishga alohida urg'u beriladi.

Forumda ko'rib chiqiladigan yana bir masala — global va mintaqaviy muloqot hamda xalqaro hamkorlikda xotin-qizlar rolini kuchaytirish: barqaror o'sish va ijtimoiy jipslikka qaratilgan o'zaro hamkorlik tarmoqlari, davlatlararo sheriklik va qo'shma tashabbuslarni rivojlantirishdir.

Ikki kun davom etadigan forumning birinchi kuni BMTning xalqaro tashkilotlari rahbarlari hamda Osiyo mamlakatlarining martabali vakillari ishtirokida yuqori darajadagi yalpi majlis hamda 4 ta parallel sessiya yo'lga o'tadi.

Ikkinchi kuni forum ishtirokchilarining Buxoro viloyatidagi xotin-qizlar tadbirkorlik va kasb-hunar markazlari, yirik sanoat korxonalari, hunarmand oilalar, monomarkaz, Prezident ta'lim muassasalari va ijod maktablari, AT park, ijtimoiy xizmatlar markazlari, namunali mahallalar, madaniy meros va turizm obyektlari hamda etnoaharlariga safari uyushtirildi. Bular, o'z navbatida, forum ishtirokchilarining O'zbekiston haqidagi tasavvurini yanada boyitishga xizmat qiladi hamda turizm rivojiga hissa qo'shadi.

Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari faoliyati uchun ham muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari o'z okrugidagi mahallalar bilan doimiy muloqotda bo'lib, aholining muammo va takliflarini bevosita o'rganadi. Mahalla shu ma'noda deputat uchun jamiyatning tirik ko'zgusi vazifasini bajarmoqda. Qaysi muammolar dolzarbligi, qaysi sohada qonunchilikni takomillashtirish zarurligi aynan mahallada aniqlanadi. Jamoaviy muhokama orqali shakllangan ijtimoiy fikr deputatlar tomonidan qonun tashabbuslariga aylantirilib, parlament muhokamalariga olib kiriladi. Shu orqali mahalladan chiqqan jamoatchilik signallari davlat siyosatiga, qonunlar mazmuniga ta'sir ko'rsatib, qonun ijodkorligi jarayonini hayotga yanada yaqinlashtirishga xizmat qilmoqda.

Bugun qonun ijodkorligi inson qadrini ustuvor qo'yan, xalq ishtirokiga tayangan va ochiq muloqotga asoslangan, sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarildi. Parlament faoliyatida shaffoflikni kuchayishi, raqamli platformalar orqali fuqarolar tashabbusining qonunchilik jarayoniga izchil kirib borishi, mahalla instituti va deputatlik faoliyati o'rtasidagi samarali uyg'unlik qonunlarning hayotiyligi va ta'sirchanligini ta'minlaydi. Natijada jamiyat ehtiyojlari to'g'ridan to'g'ri qonunlar mazmuniga singmoqda, fuqarolar esa davlat boshqaruvining faol ishtirokchisi sifatida shakllanib, parlamentga ishonch va islohotlar barqarorligi mustahkamlanmoqda.

Valisher DAVLATOV,
Parlament tadqiqotlari instituti
direktori o'rinbosari,
yuridik fanlar doktori, professor

Boshlanishi 1-betda

Markaziy Osiyo, xususan, O'zbekiston ham bundan mustasno emas. So'nggi 10 yilda mamlakatimiz iqtisodiyoti keng ko'lami o'zgarishlarni boshdan kechirib, yopiq, qat'iy tartibga solinadigan tizimdan mintaqaning eng jadal rivojlanayotgan iqtisodiyotlaridan biriga aylandi. Iqtisodiyot ko'lami amalda ikki baravar oshdi, yalpi ichki mahsulot hajmi 2017-yildagi taxminan 56 milliard dollardan 2025-yilga kelib, rekord darajada — 145 milliard dollarga yetdi. 2025-yilda real YIM 7,7 foiz o'sdi. Bu so'nggi o'n yilliklardagi eng yuqori ko'rsatkich bo'ldi. Inflyatsiya darajasi ikki xonali raqamlardan (2018-yilda 17,5 foiz) 2026-yil boshiga kelib, 7,3 foizgacha pasaydi.



Malika QODIRXONOVA,
Oliy Majlis Senati a'zosi

Gender tenglik —
rivojlanishning muhim
drayveri

Albatta, bunday olamshumul muvaffaqiyatning o'ziga yara sabablari, mashhaqqat kalitlari bor. Birgina misol: xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rini qayta ko'rib chiqish va gender tenglikka investitsiya kiritish. Xususan, ta'lim sohasini rivojlantirish maqsadida so'nggi 30 yilda Singapur, Janubiy Koreya va Tayvan hukumatlari qizlarning o'g'il bolalar bilan teng ta'lim olishiga katta maablag' sarfladi. Natijada 2010-yillarga kelib, ushbu mamlakatlarda ayollarning savodxonlik va oliy ma'lumot darajasi erkaklarnikiga tenglashdi (Janubiy Koreyada esa yoshlar orasida ayollar ko'p sohalarda erkaklardan o'zib ketish holatlari kuzatildi). Natijada Osiyo mamlakatlari millionlab yuqori malakali mutaxassisga ega bo'ldi. Bu esa iqtisodiyot uchun yuqori samarali rivojlanish bosqichiga yo'l ochdi.

O'zbekiston ham so'nggi yillarda gender tenglik masalalarida sezilarli yutuqlarga erishdi, deklaratsiyalardan haqiqiy qonunchilik va tarkibiy o'zgarishlarga o'tdi. Yurtimiz Jahon bankining 2024-yilgi "Ayollar, biznes va qonun" hisobotida eng yaxshi 5 ta islohotchi mamlakat qatoriga kirdi.

Bunda tenglik kafolatlari 2019-yilda ikkita fundamental qonun qabul qilinishi bilan shakllantirildi. "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi hamda "Xotin-qizlarni ta'lim va zo'raonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi qonunlar shular jumlasidan.

Ijtimoiy sohada ham ayollar uchun kafolatlar joriy etildi. Xususan, 2023-yilda O'zbekiston Markaziy Osiyoda o'ladagi zo'raonlik uchun jinoiy javobgarlikni joriy etgan birinchi davlat bo'ldi. 2022-yilda esa yangi Mehnat kodeksida teng qiymatli mehnat uchun teng haq to'lash tamoyili mustahkamlandi va ayrim sohalarda ayollar mehnatidan foydalanish bo'yicha cheklorlar bekor qilindi.



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda esa tadbirkor ayollar soni 156 mingdan oshdi. Onaliki qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy himoya yo'nalishida ham muhim qadamlar qo'yildi: 2022-yildan boshlab xususiy sektorda ishlaydigan ayollarga homiladorlik va tug'ish nafqalarini to'lashni davlat o'z zimmasiga oldi. 2026-yildan boshlab ijtimoiy sug'urtaning yangi tizimi joriy etilmoqda. Bundan asosiy maqsad, bir tomondan, xususiy sektorda ishlovchi xodimlarning og'ir hayoti (kasallik, homiladorlik) vaziyatlarida daromadsiz qolishi va kambag'al bo'lishining oldini olish bo'lsa, ikkinchi tomondan, tadbirkorlar zimmasidan ijtimoiy to'lovlar yukini kamaytirishdir.

Tadbir ahamiyati va
ilk natijalar

Bularning barchasi O'zbekistonda xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirishga alohida e'tibor qaratilib, global va mintaqaviy muloqot va amaliy hamkorlik izchil rivojlantirilayotganining yorqin tasdiqi'dir. Xususan, davlatimiz rahbari 2025-yil 23-sentabrda BMT Bosh Assambleyasining 80-sessiyasida Osiyo ayollari forumini muntazam o'tkazish va uni doimiy platformaga aylantirishni taklif qilgandi. Boisi, 2024-yil 13-14-may kunlari Samarqand shahrida o'tkazilgan birinchi forum juda yaxshi natija berib, xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash borasida samarali xalqaro maydonchaga aylangandi.

Forum yakunida mintaqada ayollarning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy huquqlarini mustahkamlashga qaratilgan Samarqand deklaratsiyasi qabul qilindi. Unda opa-singillarimizning ta'lim olishi, bandligi va gender byudjeti kabi muhim yo'nalishlar aks ettirilgandi. Mazkur hujjat BMT Bosh Assambleyasining rasmiy hujjati sifatida qabul qilindi va tashkilotning oltilta rasmiy

tiliga tarjima qilinib, Osiyo davlatlariga, BMT (Nyu-York va Jeneva), Parlamentlararo itifoq, UNICEF, UNESCO, ICESCO, Xalqaro mehnat tashkiloti, Islom hamkorlik tashkiloti va boshqa xalqaro tashkilotlarga keng tarqatildi.

BMT tizimida bu hujjatning ahamiyati uning rasmiy maqomi, ya'ni deklaratsiya BMT Bosh Assambleyasi sessiyasi hujjati sifatida ro'yxatga olinganida yaqqol aks etdi. Qolaversa, BMT Bosh kotibi o'rinbosari va

iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ekologik huquq hamda imkoniyatlarini mustahkamlash". Bu mavzu inson kapitali, global megatrendlar va mintaqaviy hamkorlik kun tartibini, jumladan, raqamli transformatsiya va xavfsizlik, demografik va iqlim barqarorligi hamda aholi harakatchanligi kabi o'zaro bog'liq masalalarni birlashtiradi. Bu juda muhim. Chunki bu mavzu bugunning eng o'tkir global muammolarini qamrab olgan strategik yo'nalishdir.



BMT ayollar tuzilmasi ijrochi direktori Sima Sami Baxus ushbu forum va uning yakuniy hujjati mintaqada ayollar huquqlarini ilgari surishda muhim turki to'lishini ta'kidlagandi. BMT ushbu forumni Osiyo mintaqasida xotin-qizlar imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha doimiy muloqot platformasi sifatida qo'llab-quvvatlashini bildirdigandi.

O'tgan forumdagi deklaratsiyada belgilangan, mintaqada xotin-qizlarning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy huquqlarini mustahkamlashga qaratilgan barcha vazifalar O'zbekiston tomonidan bajarildi. Endi yangi forum o'tkazish vaqti keldi. Bu safar unda Osiyoning eng ilg'or mamlakatlari ham ishtirok etadi.

Davlatimiz rahbarining Osiyo ayollari forumini muntazam o'tkazish va uni doimiy platformaga aylantirish tashabbusini amalgah oshirish maqsadida BMTning qator agentliklari bilan kelishilgan holda Osiyo xotin-qizlari ikkinchi forumi o'tkaziladi.

Maqsadi va ustuvor
yo'nalishlari

Osiyo xotin-qizlari II forumi joriy yil 14-15-may kunlari Buxoro shahrida bo'lib o'tadi. Uning mavzusi — "Ayollarga investitsiya — barqaror o'sish asosi: xotin-qizlarning

Forumdan ko'zlangan asosiy maqsad — xotin-qizlarning — siyosat, iqtisodiyot, sog'liqni saqlash va ta'lim, ijtimoiy himoya, barcha darajadagi boshqaruvda ishtirokini, iqlim va ekologiyada huquq hamda imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha global va mintaqaviy hamkorlikni kuchaytirishdir. Shuningdek, ko'lmdor tadbir barqaror o'sish resursi sifatida "gender dividenti"ni ochib berish, shuningdek, global va mintaqaviy darajada muloqot, o'zaro tajriba almashish va amaliy chora tadbirlarni muvofiqlashtirish uchun samarali platforma hozirlashga ham qaratilgan.

Ushbu maqsadlarning amaliy ahamiyati shundaki, ular ayollarni shunchaki ijtimoiy yordam oluvchi emas, balki jamiyatni o'zgartiruvchi faol kuchga aylantiradi. Xususan, "gender dividenti" tushunchasi ayollarning iqtisodiy faolligi oshishi hisobiga mamlakat yalpi ichki mahsulotining tez sur'atda o'sishini ifodalaydi. Bu, o'z navbatida, butun iqtisodiyot yangi bosqichga chiqadi va innovatsiyalar ko'payadi, deganidir.

Jahon hamjamiyati diqqati markazida bo'ladigan ushbu ko'lmdor tadbir BMTning Xotin-qizlar kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiyasi, Xavfsizlik Kengashining maxsus rezolyutsiyasi, Pekin deklaratsiyasi va Harakatlar platformasi qoidalarini hamda Barqaror rivojlanish

Yuksak jamiyat

Qonun qanchalik keng jamoatchilik ishtirokida qabul qilinsa, ijtimoiy ishonch darajasi va amaliy samaradorligi shunchalik yuqori bo'ladi. So'nggi yillarda qabul qilingan qarorlar davlat boshqaruvida inson manfaatini ustuvor qo'yan yangi yondashuv qaror topayotganini yaqqol namoyon etmoqda. E'tibor real natijaga, inson farovonligiga qaratilmoqda. Bu esa qonunlarning hayotiyligi, xalqchilligi va amaliy qiymatini sezilarli darajada oshirmoqda. Natijada fuqarolar qonun ijodkorligi jarayonida faol ishtirok etmoqda.

Bu yondashuv bugun zamonaviy axborot texnologiyalari va sun'iy intellekt rivoji bilan yanada mustahkamlanmoqda. Shundan kelib chiqib, so'nggi yillarda jamiyat va davlat o'rtasidagi munosabatlar yangi bosqichga chiqib, ochiqlik va muloqot ko'lami yanada kengaymoqda.

"Tirik huquq" konsepsiyasiga ko'ra, huquq faqat qonun matnlarida emas, balki jamiyatning kundalik hayotida, odatlarida va ijtimoiy munosabatlarida namoyon bo'ladi. Shu bois, qonunlar jamiyat ehtiyojlari va qadriyatlarini bilan uyg'un holda shakllanishi juda muhim. Aynan shu yondashuv yangi O'zbekiston taraqqiyot yo'lida o'z aksini topmoqda: qonun ijodkorligi xalq bilan hamqadam rivojlanmoqda, Parlament ushbu jarayonlarga tez moslashib, qonun ijodkorligini jamoatchilik fikriga tayangan holda tashkil etmoqda.

Eng avvalo, konstitutsiyaviy islohotlar jarayonida o'tkazilgan umumxalq muhokamasi jamiyatimizda ijtimoiy ong va tafakkurni yangilashga xizmat qildi. Xalqimiz faol ishtiroki

va keng qo'llab-quvvatlovi natijasida yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz xalq tafakkuri mahsuli sifatida shakllanib, bugun hayotimizning haqiqiy "tirik hujjati"ga aylandi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada 100 ming nafardan kam bo'lmagan fuqarolarga qonunchilik takliflarini Qonunchilik palatasiga kiritish huquqi berilishi fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtirokini sezilarli darajada kengaytirdi. Bu norma xalqning davlat hokimiyati manbai sifatidagi rolini amalda mustahkamlab, konstitutsiyaviy qoidalarning hayotdagi ta'sirchanligini oshirishga xizmat qilmoqda. Mazkur institut jamoatchilik tashabbuslarini davlat siyosatini shakllantirish jarayoniga tizimli ravishda jalb etish imkonini yaratib, ijtimoiy ehtiyojlar va jamoat fikrining qonunlar mazmuniga bevosita ta'sir ko'rsatishini ta'minlaydi.

Ushbu konstitutsiyaviy yangiliklar parlament faoliyatida ham amaliy ifodasini topmoqda. Qonun loyihalari keng muhokamaga qo'yilib, ekspertlar va fuqarolik jamiyati institutlari

tomonidan bildirilgan fikrlar izchil ravishda inobatga olinmoqda.

Qonun ijodkorligida ochiqlik va ishtirokni ta'minlashda raqamli platformalar parlament faoliyatining ajralmas qismiga aylanmoqda. Bu borada regulation.gov.uz portali Oliy Majlis Qonunchilik palatasi faoliyatini yanada shaffof va jamoatchilikka yaqin qildi. Qonun loyihalari endi keng muhokama maydonida shakllanmoqda. Fuqarolar, ekspertlar va nodavlat tashkilotlar tomonidan bildirilgan fikrlar parlament muhokamalarida inobatga olinmoqda. Natijada qonunlar mazmunini boyimoqda, ularning hayotiyligi va amaliy qiymati ortib bormoqda.

Ayniqsa, "Mening fikrim" platformasi parlament bilan jamoatchilik o'rtasidagi muloqotni yangi bosqichga olib chiqdi. U orqali fuqarolar tashabbuslari tizimli ravishda qonunchilik jarayoniga kirib bormoqda. Yetarli qo'llab-quvvatlovga ega takliflar Oliy Majlis palatalari va mahalliy kengashlar tomonidan rasman ko'rib chiqilishi parlamentning xalq ovozigga tayanganligini ko'rsatadi. Talabalar uchun kontrakt to'lovlarining qayta ko'rib chiqilishi, yo'l harakati xavfsizligiga oid qarorlar, transport sohasidagi yangiliklar kabi misollar parlament qarorlarida jamoatchilik tashabbuslari aks etayotganining yaqqol dalilidir.

QONUN LOYIHALARI MUHOKAMA
MAYDONIDA SHAKLLANMOQDA

Qonun ijodkorligida jamoatchilik ishtiroki haqida so'z yuritir ekanmiz, milliy davlatchilgimizda muhim o'rin tutgan mahalla institutini alohida ta'kidlash zarur. Ko'p asrlik an'ana va qadriyatlarini o'zida mujassam etgan mahalla xalqimizning dardu tashvishlari, orzu-umidlari va ijtimoiy kayfiyatini ifoda etuvchi

sharqona demokratiya maktabidir. U fuqarolik jamiyati instituti sifatida davlat, jamiyat va fuqaroni bog'lovchi ko'pri, jamoatchilik nazoratining muhim bo'g'inidir. Aynan shu makonda aholining ehtiyojlari aniqlanadi, ijtimoiy fikr shakllanadi va davlat organlariga dolzarb axborot yetkaziladi. Bu jarayon Oliy

RIYOSIZ SO'ZLAR

Boshlanishi 1-betda

2

Odamlar yaxshilikka tez ko'nikadi. Bir-ikki "Yaxshi bo'ldi-yel!" deb quvonadi-yu, keyin xuddi hamisha shunday bo'lganday o'tib ketaveradi. Nazarimda, shunday bo'lgani ham durust! Odamlar odamga o'xshab yashashni o'rganyapti! Munosib yashash mo'jiza emas, shunchaki har kuni biz yuzma-yuz duch keladigan voqealik ekaniga ko'nikib boryapmiz-da!..

Ammo men rivojlanish jarayoni shu qadar jadal borayotganidan baribir quvonaman.

Avliyolar, olimlar maskani bo'lgan Termiz esmini bilganidan buyon ko'rimsiz, chang-to'zonga qorishgan, soya-salqindan yiroq — yopiq harbiy shaharcha edi. Unga kirishning o'zi ham bir mashaaqat — harbiylarning posti o'natilgan, har bir yo'lovchining pasporti sinchiklab tekshirilgan, agar Surxondaryo hisobida bo'lmasangiz, o'tib ko'ring-chi!

Mustaqillikdan keyin esa, xabaringiz bor, bunday tekshiruvlar yanada avj oldi. Endi har bir viloyat o'rtasida sun'iy to'siqlar — postlar o'natildi. Bu holat xalqimizning mamlakatimiz bo'yab erkin harakatlanishiga xalal beradigan ortiqcha mashmasha edi. Pasporni unutgan bo'lsangiz, bu postlardan o'tishning yagona yo'li — imkonini topib, "posbon"larga pora berish edi... Boshqa ilojingiz yo'q. Nazarimda, bu postlar xuddi shunday vaziyat yaratish uchun qo'yilgan tuzoq edi...

Surxondaryoda esa bu holat yo'lovchini jiddiy tahlikaga soladigan darajada murakkab edi. Viloyatga kirishda — Darband postida xuddi xorijga ketayotganingiz kabi bor-yo'g'ingiz tintilar, yuklaringiz esa lentaga solinib, lazerli uskunalar yordamida ko'zdan kechirilardi. Bu ham yetmagandek, jomadon-u sumkalar ham ochdirilib, tekshirilardi... Tintuv. Xullas, pora bermasangiz, qutulib bo'psiz. Termizga va Sariosiyoga kiravershda yana shu holga duch kelinar edi.

Bu to'siqlarning hammasi Shavkat Miromonovichning bir shashti bilan yo'q bo'ldi. Chang-u g'uborga qorishgan Termiz ham birdan o'zgaraga boshladi.

Hozir bu shahar ko'chalarining ikki chetida manzarali daraxtlar soya tashlab turibdi. Ket-guncha yam-yashil chimzor. Gullar ajib did bilan ekilgan. Yaqinda mehmonxonadan mashinada chiqib, mana shunday go'zal — bir qarich ham uzilmagan manzarani oralay, aeroportgacha bordim. Xorijiy kurort shaharchalarni eslatadi. Yangi qurilgan shinam, ko'rkam imoratlar ham yarashiligi. Menga o'qituvchilardan biri "Odamlarning uy-joyga ehtiyoji to'liq ta'minlangan, bir xonadonda ikki-uch oila tiqilib yashashdan qutulgan", deb qoldi. Amaldor emas, o'qituvchi aytdi!

Termiz esa o'syapti. Baland-baland binolar qad ko'taryapti. Hatto shahar erkin nafas rostlab, tiqilmay kengayishi uchun qo'shimcha yerlar kerakligi ko'zga tashlanib qoldi. Shavkat Miromonovich bu masalani ham hal qilib berdi — shaharga qo'shimcha joylar ajratildi.

O'quvchida "Surxondaryoda faqat Termiz gullab-yashnayotgan ekan" degan taassurot qolmasligi uchun aytib qo'yay, viloyatlardagi barcha tumanlar o'zgacha qiyofa kasb etgan. Chamasi, besh-olti yil avval bir guruh san'atkorlar bilan Surxonning shimoliy hududlari sari ketayotgan edik. Yo'lda bir zum chalg'ibman. O'zimga kelib qararasim, bir notanish shaharning yonidan o'tyapmiz. Ko'p qavatli uylar, orasida orasta yo'laklar, daraxtlar, bolalar o'ynaydigan maydonchalar lip-lip o'tadi. Qayerga kelib qoldik? Surxondaryoning bir qarich yerini bilaman. Nahotki, tush ko'rayotgan bo'lsam? Bir oz yurgach, angladim: bu — Denov. Ha, o'zim boshdan-adoq kezib-bilib yurganim Denov! Ey Xudo! Bu shahar ichidagi shahar — mo'jiza qachon, qanday barpo bo'ldi? Shuncha tezmi? Angladim — bu mo'jiza Prezidentimizning shijoati tufayli bunyod bo'lgan! So'ng tasavvur qildim: mamlakatda qancha tuman bor, qancha shahar bor, boringki, mahallalar bor... Barchasida mana shunday bunyodkorlik ketayotgan bo'lsa kerak-da! Ketayapti!

Bütün mamlakatda bunday yoppa bunyodkorlikni qaysi qudrat harakatga keltiryapti? Bu savolga javob aniq: Shavkat Miromonovich Mirziyoyev!

3

Men majlislarda kam qatnashaman. Maqsad majlis o'tkazishdangina iborat bo'lgan yig'inlardan o'zimni tortaman.

Ammo yaqin kunlarda ikki majlisda qatnashib, vaqt qanday o'tganini sezmadim. Zavqlanib o'tirdim. O'zbekistonni sevadigan bir vatandar sifatida faxru quvonchga to'ldim. Gap Vatanimizning bir bo'lagi bo'lgan Surxondaryoning ertasi haqida ketdi. Prezidentimiz viloyatda 2030-yilga qadar amalga oshiriladigan rejalari haqida so'zladi.

Majlisda rejalari haqida shunchaki gapirilmadi, balki uni amalga oshirish uchun puxta, ko'lamli va aniq tayyorgarlik ko'rilgani ma'lum bo'ldi. Masalan, mana bu tarzda: reja loyihasi tayyor, mablag' bor (bank boshlig'i tasdiqlaydi) yoxud jahondagi qaysi investor bilan kelishilganini aytiladi, bu reja amalga oshiradigan tashkilot ham shay turibdi. Ishni qachon boshlash sanasi ham avvaldan aniqlangan. Mutasaddilar yana bir bor majlis ahli oldida axborot berdi.



Har bir loyihadaga qancha ish joyi ochilishi ham ochiq qilib borildi. Yuzlab, minglab...

Har bir reja haqida so'z ketganda, shu tartib amalga oshirildi. Biror-bir ishni bajarish orzu sifatida aytilmadi. Aksincha, qat'iy ishonch bilan axborot berildi.

Bu rejalarning bir uchi xorijga borib qadalganda esa onlayn tarzda majlisda qatnashayotgan elchilarimiz chet ellik hamkorlar hozir turganini, O'zbekistonda imo bo'lgach, shu zahotiyog' uchib borishini ma'lum qildi. Xorijlik hamkorlar ham unday-bunday mamlakatlardan emas — Xitoydan tortib, Janubiy Afrika Respublikasigacha!

Shavkat Miromonovich hech narsani unutmad. Prezidentimiz bugun nima ishlarni bajarish lozimligini, ertaga nimani amalga oshirish kerakligini ichki — ongosti tuyg'u bilan his qilishini shundoq sezib turdim.

Kattayu kichik muammolarning yechimini topishda bir xil mas'uliyat bilan yondashishga, ba'zan badihalarga ham guvoh bo'ldim.

Majlisdan avval boysunlik — kurash bo'yicha birinchi jahon chempioni Toshtemir polvon Muhammadiyev bilan yosh kurashchilar uchun ochilgan internat haqida suhbatlashgan edik. Majlis so'ngrog'ida Prezidentimiz ana shu polvonga murojaat qilib qoldi:

- Sening internatning maktabi yo'g'a-a?
- Yo'q, — dedi polvon.
- Bolalar qayerga o'qishga boradi?
- Shu atrofdagi qishloqlardagi maktablarga.
- Shavkat Miromonovich ko'zi bilan zaldan kerakli odamni izlab topdi:
 - Puling bor-a?
 - Ha, — deb o'midan qo'zg'aldi "kerakli odam".

MARKAZIY OSIYO XALQLARI O'RTASIDAGI BU ITTIFOQCHILIKNING, BAG'RIKENGLIKNING VA MEHR-U MUHABBATNING BOSH ME'MORI SHAVKAT MIROMONOVICH EKANINI HOZIR BARCHA KO'RIB TURIBDI. XORIJLIKLAR HAM BU MINTAQANI RIVOJLANISH SARI BOSHLAB BORADIGAN KUCH SIFATIDA O'ZBEKISTONGA QARAMOQDA.

— Shu polvonning internatiga maktab qurib berolasanmi?

— "Kerakli odam" jon deb rozi bo'ldi. — Birinchi sentabrgacha tayyor bo'lsin! — dedi Prezidentimiz.

Zavqlanganimdan sekingina bo'lsa-da "Voya", deb yubordim. Axir Shavkat Miromonovichning yelkasida qariyb o'ttiz to'qqiz million nafusli xalqning tashvishi turibdi! Mamlakatda eh-he qancha maktab bor! Endi kelib-kelib, Prezidentimiz Toshtemir polvonning maktab-internati muammosini eslab o'tirsa!..

Yig'inda menga ham so'z berildi va men bu majlisi surxondaryoliklar uchun bayram deb atadim. Chunki tushunishimcha, Vatan degan muhtasham imorat rivoji uchun qo'yilgan har bir g'isht — bayram. Bugun esa qanchadan qancha g'ishtlar qo'yildi!

Bu majlisda aytilgan va kelgusida amalga oshiriladigan har bir reja yurt xazinasi qanchalar boyishi, odamlar xonadoniga qanchalar fayz-u baraka olib kirishi haqidagi raqamlarni eslab o'tirmayman. Chunki ular matbuotda yetarlicha yoritildi.

Ammo bir qutlug' xabarni aytmasam bo'lmaydi. Yigirma oltinchi aprelda Boysungaga boradigan bo'ldim.

Termizdan keladigan yo'l manzilga olti-yetti kilometr qolganda yuqoridagi majlisda tilga olingan — bir necha yillardan buyon qurilishi davom etayotgan Darband — Denov trassasiga qo'shiladi. Biz bo'lajak trassaga tushdik. Pishiq

harakat! Bir zum bo'shshamaydigan, el dasturxoniga baraka beradigan rejalari. Bu rejalarning asoschisi Shavkat Miromonovich ham bir zum tinim bilmaydigan, mudom xalq manfaatiga uchun kuyib-yonadigan inson! Ezgu niyatlariga farishtalar omin deydi! Parvardigor rahmat eshigini ochadi!

Men yaqin kelajakda yurtimizning eng ilg'or mamlakatlar qatoridan o'rin olishiga ishonaman. Bu ishonchimga qo'shilmaydiganlar bo'lsa, Jahon bankining O'zbekistonning rivojlanish sur'ati haqidagi raqamlariga murojaat etsin. Bank 2026-yilda mamlakatimiz yalpi ishlab chiqarishi sur'atini 7,7 foiz etib, prognoz beryapti. Xorijlik mutaxassislar fikricha, o'n-o'n ikki yildan keyin O'zbekistonning yalpi ishlab chiqarishi trillion dollardan oshar ekan! Trillion! Bular osmondan olingan emas, aniq faktlar tahlili asosida yuzaga kelgan raqamlar! Ko'z tegmasin!

Uzr, xorijlik mutaxassislarni ham xijolat etib qo'yyapmiz! Yuqoridagi raqamlarni yozgandan keyin hozirgina o'qib qoldim: o'shishimiz sur'ati ularning taxminidan juda yuqori — 8,7 foizdan ziyod ekan!

Dunyoning ulug' donishmandlari insoniyatni tutib turgan qadriyatlar haqida oxir-oqibat yagona xulosaga kelgan. Insonlar, xalqlar, davlatlar o'rtasidagi munosabatlarga o'zi ham aralashib, ne-ne g'avg'olarni boshdan o'tkazgan Alisher

Navoiy bir kuni mana bunday satrlarni bitgan: *Olam ahli, bilingizkim, ish emas dushmanlig', Yor o'lung bir-biringizgaki,*

erur yorlig' ish. Bu bayt ma'nosini barcha anglab turgan bo'lsa ham mayli, sharhlab qo'yay: "Dunyo odamlari, — deyapti shoir, — bilib qo'ying: dushmanlik yaxshi ish emas. Bir-biringiz bilan do'st bo'ling, insonga faqat do'stlik yarashadi".

Shavkat Miromonovich, nazarimda, hali Prezidentlik lavozimiga saylanmasdan oldin ham "dushmanlik" ish emas" ekanini chuqur tushungan. Markaziy Osiyodagi qondosh-jondosh mamlakatlar o'rtasida yig'ingan noxushliklarni yuragi achishib kuzatgan. U boshqarqan Vazirlar Mahkamasining vazifasi yo'jalik yuritish bo'lgani uchun qo'shnilar bilan munosabatimiz yomonligi tufayli rivojlanish imillayotganini teran his qilgan. Eng muhimi, bu g'alvalardan odamlar ham azoblanayotganini o'z ko'zi bilan ko'rgan.

Albatta, shunday bo'lgan! Shu bois, Shavkat Miromonovich mamlakat boshqaruvi jilovini o'z qo'lga olgach, bir zum tin olmay, avvalo, qo'shnilar bilan qarodoshlik-qarindoshlik rishtalarini tiklay boshladi. Bu ish qancha og'ir-yengil kechgani faqat shu ezgu niyatli odamning o'ziga ma'lum. Ammo natija qutlug' — qo'shni mamlakatlarga yo'limiz tushsa, O'zbekistonning bir fuqarosi sifatida biz ham izzat-hurmat ko'ryapmiz.

Surxondaryo viloyati uchta mamlakat bilan chegaradosh. Sho'rolar davrida, masalan, Tojikiston bilan O'zbekiston o'rtasida chegara bor-yo'qligi esimizga ham tushmasdi. Termiz yopiq shahar bo'lgani uchun Dushanbega ham uchib borib, Surxonga o'tib ketaverardik. Ba'zilar kattaroq bozor-o'charini Dushanbega borib qildirdi... Ammo mustaqillikdan keyin bir muddat o'tgach, hamma o'ziga xon, o'ziga bek bo'lib oldi. Chegaradan o'tish ushshals orzuga aylandi!

Hozir tarixga aylangan boshqo'riq bu kunlardan bir shingil voqeani kuni kecha hikoya qilib berishdi. Sariosiyoda yashaydigan bir keksa ayolning Regardagi singlisi vafot etganda jigarining qabrinu ziyorat etish uchun sakliz yil urinib, chegaradan o'tolmagan ekan. Regar bilan Sariosiyoning orasi, ha boringki, yarim soatlik yo'l!

Ikki mamlakat o'rtasida do'stlik-birodarlik munosabatlari o'natilgach, qarindoshlar bu uzoq ayrilqandan so'ng yig'lab-siqtab yuz ko'rishdi. Dushanbedan shuvillab mashinalar Surxondaryoga keladigan, uch-to'rt sariosiyolik do'stlar "Dushanbeni bir aylanib kelaylik!", deb yo'lga chiqadigan bo'ldi. Bir qadam yo'l! Ertalab borib, kechqurun qaytib kelasiz!

Tojikistonni boshqa hududlar, qo'yngki, jahon bilan bog'lovchi asosiy yo'llar yurtimiz orqali o'tadi! Endi bunday imkoniyatlarga ega tojik xalqining xurramligi nechog'liq bo'lganini tasavvur eting!

Shu sababdan Shavkat Miromonovich bu qo'shnilarimiz yurtiga tashrif buyurganda, Emonali Rahmon sahnadan turib, hazil aralash juda zo'r lutf etgan edi: "Bular, — dedi u zalni to'ldirib o'tirgan tojik xalqi vakillariga ishora etib, — sizni mendan ham ortiq yaxshi ko'radi!". Mana hurmat! Mana qarodoshlik!

Prezidentimizning bu tashrifidan so'ng bir muddat o'tgach, besh-olti yuzvichi jam bo'lib, Dushanbega bordik. Maqsadimiz Boysunda

tug'ilgan do'stimiz, Tojikiston xalq yozuvchisi Sattor Tursun vafoti munosabati bilan yaqinlariga hamdardlik bildirish edi. Yoz kunlari. Egnimizda yozlik engil-bosh... Aeroportda esa bizni o'n-o'n besh chog'li kishi — oppoq ko'yilak, qora kostyum-shim kiygan tojik do'stlarimiz kutib oldi. Ertasi kuni kutilmaganda Tojikiston Yozuvchilar uyushmasida qarodosh adabiyotlarimiz aloqalari haqida konferensiya o'tkazildi. Yana hamma o'sha rasmiy kiyimda. Ko'chada esa yoz... Birodarlar, bu tarzda majlisning nomini izzat-ikrom deydilar! O'zbeklarga izzat-ikrom!

Bizni Surxondaryoga olib ketgani yurtimizdan og'aynlik keldi. Men yo'lda qanday ketsak bo'ladi, avtomobillarni haydovchilar qaysi tezlikda haydasa ma'qul, millisalar to'xtatsa, qanday muomala qilish kerak deb so'rab qoldim. Har holda mashinalarimiz raqami O'zbekistonniki-da! Tojik do'stlarining javobi meni hayron qoldirdi:

— Har qanday tezlikda haydayveringlar! Millisalar to'xtatmaydi! Prezidentimiz "O'zbeklar mening mehmonim — ularga hech kim teginmasin", deb yuqori minbarda aytgan!

Qalay? Bu gaplar o'zbek xalqiga hurmatning eng cho'qqisi edi.

Ikki xalq o'rtasidagi bu izzat-hurmatning qaytishi, yanada yuqori darajaga ko'tarilishi Shavkat Miromonovichning jonkuyarligi, samimiy — diplomatik mahorati va insoniy fazilatlarini bilan bog'liq edi.

Yaqinda atqoli o'zbek shoiri Shavkat Rahmon tavalludining 75 yilligini nishonlash uchun O'sh shahriga bir guruh ijodkorlar bilan yo'lga chiqdik. Ilgari ham O'sh safarida bo'lganman. Chegara mashmalarini o'ylab, ko'nglim xijil bo'lib borayotgandim. Ammo bezovalikka o'rin yo'q ekan. O'zbekiston fuqaroligiga oid hujjatlarimizni ko'rsatib, bemalol o'tib ketaverdik. Qirg'izlar ham yurtimizga shunday kirib kelyapti.

Bu bemalollikni yaratgan, ikki xalq o'rtasida ishonch va haqiqiy do'stlikni qayta barpo etgan insonlarni alqadik. Axir, bu ikki qo'shni xalq o'rtasida nimalar o'tmagan edi!

Shavkat Rahmonning yubileyiga bag'ishlangan ijodiy kecha nihoyatda baland saviyada o'tdi. Majlisda Qirg'iziston hukumatining bosh kotibi, nufuzli TURKSOY tashkiloti rahbari, O'sh shahri hokimi qatnashdi va nutq so'zladi. Shavkat Rahmon o'qigan maktabga va shaharning katta ko'chalaridan biriga shoir nomi berildi.

Albatta, bu katta shoir shunday ehtiromga arziydi. Shubha yo'q. Ammo baribir bu samimiy ehtiromning sababchisi Shavkat Miromonovich ekanini ham har daqiqada his qilib turdik.

Kamina Qozog'iston safarida bo'lganimda do'stlarim xuddi shunday mehriqamga duch keldim. Bir emas, bir necha mukofot bilan taqdirlandim. Hatto xorijiy bir mamlakatning adabiy mukofoti ham qozog'do'stlarimizning tavsiyasi avvaldagi yig'inarazliklariga, shunday hol ro'y berarmidim?!

Markaziy Osiyo xalqlari o'rtasidagi bu ittiqchilikning, bag'rikenglikning va mehru muhabbatning bosh me'mori Shavkat Miromonovich ekanini hozir barcha ko'rib turibdi. Xorijliklar ham bu mintaqani rivojlanish sari boshlab boradigan kuch sifatida O'zbekistonga qaramoqda.

Men, asosan, azaliy yaqin qo'shnilarimiz bilan munosabatlar haqida yozdim. Har kuni o'zgarayotgan bu chigal dunyodagi boshqa mamlakatlar bilan munosabatlarimiz ham aytishga arzigulik ekanini ta'kidlab o'tmoqchiman. Masalan, Afg'oniston bilan yetarli darajada aloqalar o'rtatilmagan. Axir bu mamlakat orqali okeanlarga chiqish orzumiz bor!.. Hozir shundoq Amudaryodagi ko'prikan o'tib, o'zbek tuprog'iga qadam qo'yilgan joyda "O'zbekiston — Afg'oniston chegara oldi savdo hududi" bunyod etilgan. Qator-qator do'stonlar, mehmonxonalar, oshxonalar... Savdo-sotiq avjida. Hudud to'lib-toshib ketayapti. Prezidentimiz bu hududga yana qo'shimcha yer ajratish haqida topshiriq berdi.

Albatta, bu yon qo'shnilarimiz ham O'zbekiston rahbari sha'niga iliq so'zlar aytgani-aytgan...

Dunyoda haqiqiy obro'ga ega bo'lish oson ish emas. Bu rubtaga iste'dodli, o'zini ayamay mehnat qiladigan, farosatli, boshqalarning ham manfaatini hurmat etadigan, o'z mamlakatini ham jonidan yaxshi ko'radigan siyosiy arboblarga sazovor bo'ladi.

Mana shunday obro'ga ega bo'lganlardan biri esa bizing Prezidentimiz — Shavkat Miromonovich! Ha, o'zimizning Prezidentimiz!

5

Mamlakatimizdagi o'zgarishlarning oqimi juda katta. Ularning hammasi "Men — o'zbekman!" deganlarni quvontiradi.

Masalan, keyingi oyldagina ro'y bergan qator yangiliklar hali-hanuz meni hayratga solib kelyapti.

Agar ikki-uch yil avval birov "Barchamizning jonimizga tekkan shu paxtadan sakson-to'qson sentnerdan hosil olinadi", desa, kamina "Qo'ysang-chi", deb kulishi aniq edi. Ammo xuddi shunday bo'ldi! Yana qayerda deng? Sirdaryoda! Bu viloyatda talabaligimda paxta terganman. O'rta yigirma sentnerdan hosil olinsa, do'ppi osmonga otilardi! Endi esa... Odam ishonmaydi. Hatto dehqonlarning o'zi ham chanoqlar boshdan-adoq ochilgan paxtazor-ga qarab, hayrat bilan gapirganiga guvoh bo'lganman. Xorijdan urug'lik keltirildimi? Keltirildi. Ammo o'zimiz ham qarab turganimiz yo'q. "Porloq" navli g'o'zimiz xorijiy navlardan ortiq bo'lsa ortiq, lekin kam emas!

Bir jumla bilan bilan aytilganda, paxtachilikda inqilob ro'y berdi!

Hayratlanarli yana bir voqea. Olmaliqda 3-mis boyitish fabrikasi ishga tushirildi. Bunday fabrikalar qurilib, ishga tushirilish jarayoni butun jahonda o'n yilga cho'zilar ekan. Bizda esa to'rt yilda (ha, to'rt yilda!) amalga oshirildi. Bu muddatga hatto o'zimizning eng katta mutaxassislar ham, amerikalik hamkor ham ishonqiraman ekan. Mana shu amerikalik endi butun jahonni O'zbekistonning bu tezkor tajribasini o'rganishga chaqirdi.

Yana bir hayrat. Faqat men emas, hali o'zbeklarning necha-necha avlodi g'ururlanadigan mo'jiza — Islom sivilizatsiyasi markazining bunyod etilishi. Bu markaz ajib did bilan qurilgan koshona. Devorlarida qo'l bilan ishlangan naqshlar, butun dunyodan yig'ib kelingan — ilgari o'zimizdan olib chiqib ketilgan noyob ekspozitlar, Usmon Qur'oni, qadimiy qo'lyozmalar... Ularni namoyish etish uchun eng zamonaviy texnologiyalarning qo'llanish...

Shavkat Miromonovich markazning qurilishi haqida qiziq tushuntirish berdi: "Bu markazning qurilishida shoshmadik. Sakkiz yilda oxiriga yetkazdik...".

Bu izoh menga juda yoqdi. Chunki navbatdagi bir imorat emas, balki san'at asari qurilayotgan edi! San'at asari yaratilishiga xuddi shunday sabr-toqat bilan yondashiladi! Prezidentimiz mana shu noziklikni anglagan!

Xullas, asrlarga tatigulik inshoot dunyoga kelgan.

Men internetda bu mo'jizani tomosha qilish uchun borayotgan ikki kishining suhbatini eshitdim.

— Sen, — dedi ularning biri imorat bor bo'yicha ko'ringach, — Tojmalhali ham ko'rgansan. Qaysi zo'r?..

— Bu zo'r-ov, — dedi hamrohi binoga nazar tashlab. So'ng ishonch bilan bir qarorga keldi. — Bu zo'r!

Tamom, vassalom! Bu zo'r! Bunday bunyodkorliklar haqida yozaversam, ado bo'lmaydi shekilli.

Bugun internetni ochdim. Mana, tilga olingan yangiliklar: Toshkentdan Xorazmga yo'l olgan "Jaloliddin Manguberdi" tezyurar poezidi, Toshkent viloyati markazidan Bekobodan aylantirilib, Yangiyerga boradigan yangi 111 kilometrli yangi temir yo'l qurilishi, Samarqandga boradigan yangi tezkor yo'l, Toshkentdagi yangi aeroportdagi asosiy ishlarning boshlanishi...

Nazarimda, hayratlarimning endi cheki bo'lmaydi.

So'ngso'z o'mida

Sport ishqibozimam. Ishqibozligimni biladigan Xayrulla degan jurnalist ukam — to'qsoninchi yillarning oxirida bo'lsa kerak, futbol gazetalardan biriga intervyu olib qoldi.

— Mana, Yaponiya futbol jamoasi jahon chempionati finaliga yo'llanma oldi, — dedi u. — Biz qachon jahon chempionatiga chiqamiz? — Endi, — dedim men atrofimdagi voqealarni bir zum ko'z oldimga keltirib, — mamlakatimizning Yaponiyaga mengazb rivojlanishini kutamiz-da, ukam.

Orzumizga erishdik. Futbolchilarimiz final yo'llanmasini qo'lga kiritdi. Demak... Yaponiyaga mengazb ketayapmizmi? Shunga juda o'xshaydi. Har holda rivojlanishimiz sur'ati kunqinchar yurtnidkan ancha baland.

Ishonchim komil, shunday bo'ladi! Chunki Vatanimizning bugunvni va ertasini yaratishga vatanparvar, xalqparvar, ishbilmarmon va adolatlari bilan bog'lagan!



Suhbat

OCHIQ VA ISHONCHLI STATISTIKA

MAMLAKATIMIZNING BU BORADAGI YUTUQLARINI JAHON E'TIROF ETMOQDA

Joriy yil 1-yanvardan O'zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyo davlatlari orasida birinchi bo'lib BMT Statistika komissiyasi byurosining 2026-2029-yillar uchun a'zosi etib saylandi. Ushbu komissiya byurosining raisi o'rinbosari lavozimiga ham o'zbekistonlik vakil — Milliy statistika qo'mitasi raisi Behzod Hamroyev saylanadi. Buni O'zbekistonning global statistika hamjamiyatidagi o'rni tobora mustahkamlanib borayotganining yuksak e'tirofi sifatida baholash mumkin.

Yaqinda Jahon banki guruhining Vashington shahridagi shtab-kvartirasida bo'lib o'tgan xalqaro konferensiya esa O'zbekistonning statistika sohasidagi islohotlari va natijalariga bag'ishlandi. Unda o'z ma'ruzasi bilan ishtirok etgan O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi raisi, BMT Statistika komissiyasi byurosi raisi o'rinbosari Behzod Hamroyev bilan mamlakatimiz statistika tizimi qanday qilib qisqa vaqtda xalqaro miqyosga ko'tarilgani va bugun milliy tajriba xorijda katta qiziqish uyg'otayotgani haqida suhbatlashdik.

— Yurtimizda rasmiy statistika faqat kuzatuv olib boruvchi yoki mavjud holatni qayd etuvchi mexanizm emas, balki qaror qabul qilishni ilmiy asoslaydigan, iqtisodiyot va jamiyatdagi chuqur tarkibiy o'zgarishlarni ochib beradigan, ochiqlik va hisobdorlikni kuchaytiradigan muhim tizim sifatida namoyon bo'lmoqda, — deydi B.Hamroyev. — Mazkur yondashuv O'zbekiston statistikasini o'zgarishlarni ochib beradigan, ochiqlik va hisobdorlikni kuchaytiradigan muhim tizim sifatida namoyon bo'lmoqda, — deydi B.Hamroyev. — Mazkur yondashuv O'zbekiston statistikasini o'zgarishlarni ochib beradigan, ochiqlik va hisobdorlikni kuchaytiradigan muhim tizim sifatida namoyon bo'lmoqda, — deydi B.Hamroyev. — Mazkur yondashuv O'zbekiston statistikasini o'zgarishlarni ochib beradigan, ochiqlik va hisobdorlikni kuchaytiradigan muhim tizim sifatida namoyon bo'lmoqda, — deydi B.Hamroyev.

Yangilanishlarning asosiy afzalligi shundaki, ular shunchaki maqsad yoki alohida



agentligining Milliy statistika qo'mitasi sifatida qayta tashkil etilishi, Statistika kengashining tuzilishi, Transformatsiya ofisi faoliyatining yo'lga qo'yilishi bu jarayonning davlat siyosati darajasiga ko'tarilganini yaqqol ko'rsatadi.

Sohadagi o'zgarishlarni izchil va mantiqiy rivojlanayotgan yaxlit jarayon sifatida ko'rish mumkin. Dastlabki bosqichda huquqiy va tashkiliy poydevor yaratildi. Institutsonal baza

foiz qisqartirildi. Tashkiliy tuzilmalarning yangilanishi, transformatsiya mexanizmlarining ishga tushishi, ro'yxatga olish tadbirlarining zamonaviy formatlarda tashkil etilishi va ma'lumotlarni shakllantirish hamda tarqatish amaliyotidagi sezilarli siljishlar buning yaqqol ifodasi.

Endi esa oldimizda yanada mas'uliyatli va keng qamrovli vazifa turibdi. Bu statistika tizimining barcha bo'g'inini o'zaro uzviy bog'langan, yagona va samarali ishlaydigan tizimga aylantirishdan iborat. Ma'lumotlarni yig'ish, tekshirish, qayta ishlash, o'zaro uy' unlashtirish, tahlil qilish va foydalanuvchilarga yetkazish jarayoni alohida-alohida faoliyat yuritadigan bo'laklar sifatida emas, balki bir-birini to'ldirib turadigan, zamonaviy boshqaruv tamoyillari asosida ishlaydigan yaxlit tizim ko'rinishida shakllanishi lozim.

— Joriy yil avvalida mamlakatimizda o'tkazilgan keng ko'lami ro'yxatga olish tadbiri katta voqea sifatida yodimizda qoldi. Yangi O'zbekiston milliy statistikasining zamonaviy imkoniyatlarini yaqqol ko'rsatib bergan ushbu tadbir xalqaro maydonda ham katta qiziqish bilan kuzatilib, muvaffaqiyatli o'tkazilgani e'tirof etilmog'da. Shunday emasmi?

— Ushbu tadbir yurtimizning nafaqat statistika sohasidagi, balki raqamlashtirishdagi imkoniyatlarini ham namoyon eta oldi. Hatto mazkur yo'nalishdagi muvaffaqiyatli sa'y-harakatni mamlakatimizning zamonaviy ma'lumotlar davlatiga aylanish yo'lidagi tarixiy qadami sifatida baholash mumkin. Qolaversa, aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbiri mustaqil davlatimiz tarixida birinchi marotaba o'tkazildi hamda milliy statistikada mulqo yangi davrni boshlab berdi.

Bu jarayonni sohani haqiqiy ma'noda raqamli texnologiyalarga o'tish bosqichi sifatida baholash mumkin. Gap shundaki, aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish O'zbekiston tarixida to'liq raqamlashtirilgan, zamonaviy axborot texnologiyalari asosida tashkil etilgan va qamrovi bo'yicha eng yirik tadbirlardan biri bo'ldi. Jarayon mulqo raqamli tizim asosida amalga oshirilib, inson omilini kamaytiruvchi avtomatik nazorat mexanizmlaridan foydalanildi.

Ayniqsa, geoxaborot tizimi (GIS) texnologiyalari jarayonda tezkorlik, aniqlik va samaradorlikni ta'minladi. Raqamli va sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida hududlar bo'yicha qamrov holati muntazam kuzatildi, ma'lumotlar xaritalar asosida tahlil qilindi. Ayrim noaniqliklar tezkor bartaraf etildi va ro'yxatga olish natijalarining manzillar bilan

uyg'unligi ta'minlandi. Mazkur tajriba kelgusida geostatistik infratuzilmani rivojlantirish uchun ham muhim poydevor bo'lib xizmat qiladi. Eng asosiysi, raqamli texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan sa'y-harakatlar bir martalik amaliy ehtiyoj bilan cheklanmay, statistika tizimining uzoq muddatli yangilanishiga xizmat qiladigan barqaror yo'nalishga aylanaadi.

Qisqasi, ro'yxatga olish tadbiriga uzoq vaqt puxta tayyorgarlik ko'rilgani o'zini olqadi. To'plangan ma'lumotlar shunchaki raqamlarni qayd etish emas, balki mamlakatning demografik, ijtimoiy va iqtisodiy holatini har tomonlama aks ettiruvchi ishonchli statistik ma'lumotlar bazasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Yurtdoshlarimiz ham buni anglagani holda ro'yxatga olish tadbirlariga katta qiziqish bildirib, faol ishtirok etdi. Jarayonda jami 8,3 million xonadonda yashovchi aholi to'liq qamrab olindi. Qariyb 9000 ga yaqin mahalladagi 55 mingdan ortiq ro'yxatga oluvchi jalb qilindi. Bu kichik raqamlar emas va ularning ortida ikki muhim xulosaga muvassam. Birinchisi, jamiyatning ro'yxatga olish jarayoniga ishonchi va faol fuqarolik ishtiroki kuchaygani bo'lsa, ikkinchisi, mamlakatimizning raqamli tayyorgarligi va texnologik moslashuvchan salohiyati yangi bosqichga ko'tarilganini tasdiqlaydi.

Jarayonda xalqaro tajribani o'rganish va tavsiyalarni inobatga olish alohida ustuvor yo'nalish sifatida belgilandi. Raqamli platformalar, logistika, respondentlar bilan mulqot, ma'lumotlarni qayta ishlash va nazorat mexanizmlarining samarali jihatlarini o'rganildi. BMning Aholishunoslik jamg'armasi hamda Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkilotining ro'yxatga olish tadbiri yuzasidan ijobiy xulosalar va tavsiyalari olindi. Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi, BMT, Xalqaro migratsiya tashkiloti va boshqa nufuzli

xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik doirasida tayyorgarlik ishlari bajarildi.

Ro'yxatga olish sifatini belgilaydigan eng asosiy jihatlardan biri — inson omili. Qanchalik mukammal texnologiya joriy etilmasin, ma'lumotni to'g'ri qabul qilish, savollarni tushunarli yetkazish, axborot madaniyati va mulqot e'tikasi birinchi o'rinda turadi. Shu bois, kadrlar tayyorlash masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Dastlab hududlarda "mahalla yettilligi"ni o'qitadigan murabbiylar tayyorlandi. Keyinchalik ular "mahalla yettilligi" a'zolari, shtab xodimlari hamda hududlarga birlashtirilgan rahbarlar uchun maxsus o'quv mashg'ulotlari tashkil etdi. Umumiy hisobda 60 mingdan ortiq ishtirokchi o'qitildi.

Qisqasi, umummilliy ro'yxatga olish tadbiri mamlakatimiz statistika sohasidagi ulkan yutuqlardan bo'ldi. Ayni paytda ro'yxatga olish tadbirida to'plangan katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash, tekshirish va tahlil etish ishlari izchil davom etmoqda. Ularning natijasi kelgusi yillardagi tanlanma kuzatuvlarni xalqaro standartlar asosida takomillashtirish, uy xo'jaliklari va biznes kuzatuvlarining sifati hamda aniqligini oshirish uchun mustahkam asos bo'ladi. Shu bilan birga, mazkur ma'lumotlar hududiy rivojlanish, bandlik, uy-joy, qishloq xo'jaligi va ijtimoiy himoya sohalarida qabul qilinadigan qarorlarning asosligi va samaradorligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

— Statistik raqamlarni to'g'ri va aniq shakllantirish asosiy masala, albatta. Lekin ana shu ma'lumotlarning ochiqligini ta'minlash, odamlarning turli yo'nalishlardagi raqamlarni shaffof ko'rib borishi, ularning foydalanishi imkoniyatlarini oshirish ham birdek dolzarb. Bu boradagi ko'rsatkichlarimiz xalqaro maydonda qanday baholanayotir?

— Bugun rasmiy manbalar orqali har kuni e'lon qilib boriladigan statistik raqamlarning aksari haqida bir vaqtlar bilish uchun o'nlab tashkilotga murojaat qilish kerak edi. Shunda ham aniq ma'lumotlarni olish dargumon bo'lgan. Endi esa bunday ma'lumotlar muntazam berib borilayotganining o'ziyoq ochiqlik masalasidagi ijobiy natijalarimizni yaqqol ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi ochiq ma'lumotlar bo'yicha xalqaro Open Data Inventory reytingida 198 mamlakat orasida 83 ball bilan 12-o'ringa ko'tarildi hamda Markaziy Osiyoda 1-o'rinni saqlab qoldi. Bu ham yurtimizda rasmiy statistikaning jamoatchilikka ochiqligi, foydalanish qulayligi va ma'lumotlarni tarqatish sifati oshayotganidan dalolat beradi. Qolaversa, mazkur xalqaro e'tirof davlat va jamiyat o'rtasidagi ishonchga asoslangan munosabatlarni mustahkamlovchi amaliy ko'rsatkichdir.

Masalan, molliya sohasidagi raqamlarni o'ylaylik. O'n yil oldin bu eng yopiq tizimlardan biri bo'lgani holda raqamlar deyarli ochiq bo'lmagan. Bugun esa makroiqtisodiy statistika sohasida har chorak, oylik hisobotlar berilyapti. Ularning natijalari, ko'rsatkichlarga ta'sir qilgan omillar tahlil qilinayapti. Jamoatchilikning bu boradagi savollariga aniq asoslar bilan javoblar berilyapti. Boshqa barcha sohada ham xuddi shunday.

Statistika endi faqat tayyorlanadigan mahsulot emas, balki keng foydalaniladigan, chuqur tahlil qilinadigan va qarorlar qabul qilishga xizmat qiladigan zamonaviy resursga aylanmoqda. Ayni shu ehtiyoj va vazifalardan kelib chiqib, yurtimizda 2026-2030-yillarga mo'ljallangan statistikaning rivojlantirish milliy strategiyasi loyihasi ishlab chiqildi. Unda institutsional modernizatsiya, statistik ishlab chiqarish va sifati ta'minlash, ma'lumot yig'ish tizimlarini yangilash, ma'muriy ma'lumotlar integratsiyasi, raqamli transformatsiya, innovatsiyalar, ma'lumotlarni tarqatish, foydalanuvchilar bilan ishlash, kadrlar salohiyatini oshirish va xalqaro hamkorlik kabi o'zaro bog'liq ustuvor yo'nalishlar qamrab olingan.

Ayni vazifalardan kelib chiqib, kelgusi yillarga mo'ljallangan ishlar belgilab olingan. Dastlab ro'yxatga olish natijalarini chuqur qayta ishlash va jamoatchilikka taqdim etish, uy xo'jaliklari kuzatuvlarini yanada takomillashtirish ustuvor vazifalardan biri bo'lib qoladi. Shu bilan birga, raqamli rivojlanishning asosiy yo'nalishlarini belgilash, ma'lumotlar bazasini takomillashtirish, statistik ma'lumotlarni yagona mezonlar asosida tartibga solish va zamonaviy portal yechimlarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Keyingi bosqichlarda zamonaviy iqtisodiy kuzatuvlarni keng joriy etish, biznes va aholi registrlarini mustahkamlash, ma'lumot almashinuvchi va tahlilning ilg'or vositalarini amaliyotga tatbiq etish bo'yicha ishlar yanada jadallashadi. Biznesni ro'yxatga olish va tanlanma kuzatuvlar metodologiyasini yanada takomillashtirish hamda uni xalqaro standartlarga moslashtirish bo'yicha ishlar izchil bajariladi. Geoinformatsion yechimlar, sun'iy intellekt imkoniyatlari, mikroma'lumotlarni tarqatish tizimini joriy etish va samarali tashkil qilish hamda boshqa zamonaviy raqamli yondashuvlarga tayangan sinov loyihalari ham ayni shu davrda muhim.

Shundan so'ng bugun boshlangan yangilanishlar alohida loyiha doirasidan chiqib, statistika tizimining kundalik va barqaror faoliyatiga singib borishi ko'zda tutilmog'da. Natijada yurtimizda statistika tizimi yanada takomillashtadi, ma'lumotlarni foydalanuvchilarga yetkazish mexanizmi mustahkamlanadi va doimiy rivojlanishga tayangan zamonaviy ish uslubi qaror topadi.

"Yangi O'zbekiston" muxbiri
Iroda TOSHMATOVA
suhbatlashadi.

AHOLINI VA QISHLOQ XO'JALIGINI RO'YXATGA OLISSHA FAOL ISHTIROK ETING!

Yangi O'zbekistonning bir qismi bo'li!

yuz.uz

yuz.uz

yuz.uz

yuz.uz

yuz.uz

yuz.uz

yuz.uz

yuz.uz

yuz.uz

yuz.uz

yuz.uz

yuz.uz

yuz.uz

yuz.uz

yuz.uz

yuz.uz

yuz.uz

yuz.uz

yuz.uz

yuz.uz

yuz.uz

yuz.uz

yuz.uz

yuz.uz

yuz.uz

yuz.uz

yuz.uz

yuz.uz

yuz.uz

yuz.uz

yuz.uz

yuz.uz

yuz.uz

yuz.uz

yuz.uz

yuz.uz

yuz.uz

yuz.uz

yuz.uz

yuz.uz

yuz.uz

yuz.uz

yuz.uz

yuz.uz

yuz.uz

yuz.uz

yuz.uz

yuz.uz

yuz.uz

yuz.uz

yuz.uz

yuz.uz

yuz.uz

yuz.uz

yuz.uz

yuz.uz

yuz.uz

yuz.uz

yuz.uz

yuz.uz

yuz.uz

yuz.uz

yuz.uz

yuz.uz

yuz.uz

yuz.uz

yuz.uz

yuz.uz

yuz.uz

yuz.uz

yuz.uz

yuz.uz

yuz.uz

yuz.uz

yuz.uz

yuz.uz

yuz.uz

yuz.uz

yuz.uz

yuz.uz

yuz.uz

yuz.uz

yuz.uz

yuz.uz

yuz.uz

yuz.uz

yuz.uz

yuz.uz

yuz.uz

yuz.uz

Islohotlar odimi

Keyingi yillarda mamlakatimizda yoshlarni oliy ta'limga qamrov darajasi keskin oshdi. Mehnat bozorida talab yuqori zamonaviy kasblar bo'yicha kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmog'da. Prezidentimiz tashabbusi bilan payshanba kuni "Yoshlar kuni" etib belgilanib, bu boradagi tizimli ishlar yangi bosqichga olib chiqildi. Hozir rahbarlar yoshlar bilan mulqot qilib, chet tili va kasb-hunar o'rganishi, sport bilan shug'ullanishi, g'oya, loyiha hamda startaplarini amalga oshirishga yordam bermoqda. Ular uchun mehnat yarmakalari tashkil etilmog'da.

Navoiy viloyatida hozir 14-30 yoshgacha bo'lgan 268 ming 164 yigit-qiz bor. Ulardan 1100 nafari tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanmog'da.

— Prezidentimiz bu borada bir qancha ustuvor vazifalarni belgilab bergan. Yoshlarni ish bilan ta'minlash va bo'sh vaqtni mazmunli tashkil qilish shular jumlasidan, — deydi Navoiy viloyati yoshlar ishlari boshqarmasi boshlig'i Laziz Qayumov. — Viloyatimizdagi rahbar xodimlar har payshanba kuni yoshlarning muammolarini tinglab, tashabbuslarini qo'llab-quvvatlamog'da. Har bir yigit-qiz bilan individual ishlash tizimiga o'tilgan. Xususan, yoshlarning tadbirkorlik loyihalari qo'llab-quvvatlash va yangi ish o'rinlarini ochishga jiddiy e'tibor berilmog'da. Masalan, 2025-yili 718 yoshga tadbirkorlik boshlashi uchun 85 milliard so'm ajratilgan edi. 2026-yilning birinchi choragida esa 98 yigit-qizga 10 milliard so'm ajratildi.

Shu kabi ishlar sabab keyingi yillarda yosh tadbirkorlar soni 3 baravar oshdi. Ishsiz yoshlar esa 2 baravar kamaydi. Bu jarayonda mehnat yarmakalarning ham alohida o'rni bor. Navoiy shahrida yoshlar uchun tashkil etilgan navbatdagi mehnat yarmakasida viloyatning barcha tuman va shahridagi 215 korxonaga va tashkilot 4500 dan ziyod bo'sh ish o'rini taqdim etdi.

— Mehnat yarmakasida 284 fuqaro shu kunning o'zida ishga joylashtirildi, — deydi viloyat kambag'allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi boshlig'i Lutfullo Xayrullayev. — Shuningdek, ishtirokchilarning 56 nafari kasb-hunarga o'qishga jalb etildi. Yana 212 yurtdoshimizga o'zini o'zi band qilishi uchun imtiyozli kredit ajratish maqsadida badiyayonoma berildi.

O'zini o'zi band qilgan yoshlarning yirik loyihalarni moliyalashtirish uchun ham kredit berish tizimi yo'lga qo'yilmog'da. Innovatsion startaplarga investitsiya kiritishga ruxsat berilishi esa yoshlarni global bozorga chiqishga undaydi.

— Yoshlar tadbirkorlik subyektlarining yirik loyihalarga yaqindan ko'mak berilmog'da, — deydi "Yoshlar — kelajagimiz" jamg'armasi Navoiy filiali boshlig'i Javlon Mardiyev. — Shuningdek, yoshlar bandligini ta'minlashni qo'llab-quvvatlash bo'yicha tadbirkorlar uchun yangi imkoniyatlar yaratilmog'da. Masalan, shu vaqtgacha yangidan tashkil qilingan tadbirkorlik subyektlari 5 milliard so'mgacha kredit olardi. 2026-yilda ushbu mablag' 10 milliardgacha oshirildi. Mazkur kredit 7 yil muddatga beriladi. Joriy yilning birinchi choragida 35 milliard so'mga yaqin kredit ajratildi. Natijada 600 dan ziyod yangi ish o'rini ochildi.

Navoiy shahrida Yoshlar sanoat markazi tashkil etilgan. Bu yerda kelgusida 300 ta ish o'rini ochish rejalashtirilgan. Buning uchun sanoat zonasiga 65 sotix yer ajratilgan. Bu yerda yoshlar zamonaviy kasblarga o'qitiladi va mahsulotlar sotuvi yo'lga qo'yiladi.

— Yoshlarga yaratilayotgan imkoniyatlardan samarali foydalanib, sanoat zonasida tadbirkorlik faoliyatini boshladik, — deydi tadbirkor Gulruh Mardonova. — Tikuvchilik, o'quv markazi va logistika yo'nalishlari bo'yicha ishlaymiz. Bu yerda uch oy davomida tadbirkorlarga o'z biznesini erkin rivojlantirish imkoniyati yaratib berilgan. Yoshlar sanoat zonasining muhim, qulay jihat shuki, bu yerda ishlab chiqarilgan mahsulot shu joyning o'zida sotiladi. Asosiysi, tadbirkor qulay sharoitda ish boshlab, yoshlarning bandligi ta'minlanmog'da.

Ozodbek Istamov ana shunday tadbirkor yoshlardan. U ta'lim rivojiga qaratilgan tashabbusi bilan tengdoshlariga namuna bo'lmoqda.

— Navoiy shahri markazidagi Farovon mahallasida maktabgacha ta'lim muassasasini ochildik, — deydi yosh tadbirkor. — Ushbu muassasa 150 o'ringa mo'ljallangan bo'lib, hozir 30 ga yaqin ish o'rni ochildi. Kelajakda faoliyatini yanada kengaytirish niyatidamiz. Bu yerda bolalar uchun ingliz va rus tillarini o'qitish, mental arifmetika, gimnastika, karate to'garaklari mavjud. Bularning barchasi bolalarning sifatlari ta'lim-tarbiya olishi va har tomonlama rivojlanishi uchun xizmat qiladi.

ELNING ERTASI MUNOSIB QO'LLARDA



Yoshlar bandligi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi asosiy omillardan. Navoiy shahrida yangi ish boshlagan yana bir korxonaga fikrimizni tasdiqlaydi.

— O'tgan yili oliy ta'lim muassasasini tugatib, "Kelajakka qadam" loyihasi asosida tadbirkorlik faoliyatini boshladim. Buning uchun 120 million so'm kredit oldim, — deydi yosh tadbirkor Nozima Sultonova. — Aslida, tadbirkorlik bo'yicha biznes loyiha ancha vaqtdan buyon tayyor edi. Prezidentimizning sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishga qaratilgan tashabbuslari bu rejamani amalga oshirishim uchun katta turki bo'ldi. Hozir ikki

xil mahsulot ishlab chiqaryapmiz. Birinchisi — an'anaviy damlama, ikkinchisi esa filtri paketdagi choylar. Har birining o'ziga xos xususiyat bor. Asosiysi, bu mahsulotlar inson salomatligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bir yil oldin ish boshlaganimda mahsulotlarimiz oddiy qadoqda chiqarilar, hozirgidek dizayn yo'q edi. Keyinchalik bu sohani chuquroq o'rganish uchun ko'plab yo'nalishlarda bilim oldim. Kelgusida mahsulotlarimizni jahon bozoriga olib chiqish va milliy brend sifatida tanitishni maqsad qilganmiz.

Bugun yurtimizda milliy g'ururi baland, o'z oldiga Vatanga munosib farzand bo'lish, yurt ravnaqiga hissa qo'shishdagi ulug'vor maqsadlar qo'ygan yoshlar ko'p. Bu mamlakat kelajagi, elning ertangi kuni ishonchli qo'llarda ekanidan dalolat.

G'olib ABDUSALOMOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



Nuqtayi nazar

INTELLEKTUAL SALOHIYAT VA GLOBAL INTEGRATSIYA UYG'UNLIGI

Shuhrat SIROJIDDINOV, akademik



Yoshlarning tashabbuskorligini qo'llab-quvvatlash, ulardagi ixtirochilik va tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish jarayoni endi moliyaviy hamda huquqiy jihatdan tizimli kafolatlanmoqda. Yoshlarning innovatsion tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash ofisining ochilishi dastlabki g'oyadan tortib, uni hayotga tatbiq etishgacha bo'lgan murakkab yo'lga yosh olimlar uchun asosiy suyanchiq vazifasini o'taydi.



shaffoflik hamda tezkorlikni kafolatlaydi. Talabning o'zlashtirishi, ijtimoiy holati va intizomini o'zida mujassam etgan "Talabning raqamli pasporti" amaliyotga tatbiq qilinishi yoshlar bilan ishlashda mutlaqo yangi, tahliliy yondashuvni yuzaga keltiradi. Shuningdek, bo'lajak mutaxassislar bandligini ta'minlash, ularning o'z qobiliyatini mehnat bozorida to'g'ri sarmoya qilishiga ko'maklashish maqsadida "Karyera" elektron platformasining ishga tushirilishi hamda "Bitiruvchi sifati indeksi"ning ishlab chiqilishi ta'lim va iqtisodiyot o'rtasidagi ko'priki yanada mustahkamlaydi. Bu orqali har bir universitet o'z talabasining keyingi taqdiri, jamiyatdagi o'rni va kasbiy yuksalishi uchun real mas'uliyatni his qila boshlaydi.



tarzda moliyalashtirilmaydi, balki oliy ta'lim tashkilotlari milliy reytingdagi o'rni hamda ko'rsatgan aniq natijalariga ko'ra moddiy rag'batlantiriladi. Talabalar qamrovi, akademik, ilmiy va xalqaro faoliyat, raqamlashtirish darajasi hamda bitiruvchilarning ish bilan ta'minlanishi kabi muhim indikatorlar asosida toifalarga ajratilgan holda yuritiluvchi mazkur reyting oliygo'lar o'rtasidagi sifat uchun kurashni butunlay yangi bosqichga olib chiqadi. O'z toifasida eng yuqori natijani qayd etib, birinchi darajaga ko'tarilgan kuchli 20 foiz oliy ta'lim muassasalarining xarajati 20 foizgacha qo'shimcha ustama bilan qoplanishi rahbarlar hamda professor-o'qituvchilarni uzluksiz o'z ustida ishlash, ta'lim dasturlarini zamon talabari ruhida modernizatsiya qilishga undaydi. Shuningdek, talabalarni o'qitish xarajati miqdorini shakllantirishda ta'lim yo'nalishining murakkabligi, hududiy joylashuv va milliy reytingdagi o'rni kabi o'ziga xos omillarning inobatga olinishi ma'krablag'larning oqilona hamda manzilli yo'naltirilishiga xizmat qiladi.

qo'llab-quvvatlash maqsadida mazkur ilmiy klasterlarni moliyalashtirish uchun 150 milliard so'mgacha mablag' ajratilishi milliy tadqiqotlarimiz xalqaro bozorga chiqishi uchun beqiyos imkoniyat eshiklarini ochadi. O'oliblarni aniqlashda xalqaro miqyosda tan olingan reytinglarda dastlabki 300 talik ro'yxatga kirgan xorijiy ta'lim muassasalarining ishtirok etishi ekspertiza jarayoni nihoyatda adolatli, xolis va jahon standartlariga to'la mos kelishini kafolatlaydi. Professor-o'qituvchilarning ilmiy salohiyati, infratuzilma holati va loyihani hamkorlikda moliyalashtirishdagi ishtirokchi tashkilotlarning ulushi kabi faoliyat yuritgan bo'lsa, yangi tamoyil ularni yagona, uzviy va hayotiy zanjir atrofida birlashtiradi. Ta'lim berish jarayoni yuksak axloqiy tarbiya bilan uyg'unlashgandagina chin vatanparvar va fidoyi kadrlar yetishib chiqadi. O'z navbatida, zamonaviy tadqiqotlar faqat kutubxonada aylanib ulgurmay. Tizimli takomillashtirish esa barcha jarayonning doimiy ravishda zamon bilan hamnafas yangilanib borishini ta'minlovchi o'ziga xos harakatlantiruvchi kuchdir. Bunday kompleks yondashuv mamlakatimiz oliy ta'lim tizimi tomirlariga yangicha qon yuqurtirib, uning xalqaro reytinglardagi munosib o'rini ta'minlashga qaratilgan.

Hujjatdagi eng diqqatga sazovor yo'nalishlardan yana biri "U 10 — O'zbekistonning global ilg'or universitetlari" dasturining joriy etilishidir. Unga ko'ra, o'zining yuqori salohiyatini namoyon qila olgan o'n ta'lim oliy ta'lim tashkilotiga milliy tadqiqot universiteti maqomini berish rejalashtirilgan. Ushbu jarayon o'z-o'zidan, sun'iy ravishda amalga oshirilmaydi, aksincha, raqobatbardoshlik va shaffoflik prinsiplariga tayangan holda, ilmiy klaster tashkil etish loyihasi doirasida o'tkaziladigan tanlovlar orqali ro'yobga chiqadi. Ilmiy klaster loyihasining arxitekturasini noyob xususiyatga ega bo'lib, mahalliy oliygo'lar, nufuzli xorijiy universitet, ilmiy tashkilot hamda soha

mamlakatimizda fundamental ilm-fanga qaratilgan munosabatning in'ikosidir. Oliy ta'lim sohasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish va sifat ko'rsatkichlarini tubdan oshirish maqsadida 2027-yil 1-yanvarda tiboran joriy etiladigan natijaga yo'naltirilgan dasturining yo'lga qo'yilishi o'zbek ta'limining xalqaro brendini yaratishdagi dadil qadamdir. Yosh, iqtidorli va ilimga chanqoq xorijlik yoshlarning yurtimizdagi oliygo'hlarda tahsil olishi kelajakda xalqaro maydonda O'zbekiston manfaatlarini himoya qiluvchi, tilimiz va madaniyatimizga hurmat bilan qarovchi yirik intellektual elitani shakllantirishga mustahkam zamin yaratadi. Bundan tashqari, xorijlik talabalarni qabul qilish mexanizmlarini soddalashtirish maqsadida ishlab chiqilayotgan "Study in Uzbekistan" maxsus elektron platformasi mamlakatimiz ta'lim xizmatlari bozorining raqobatbardoshligi va jozibadorligini bir necha bor oshiradi. Innovatsiyalar va raqamli texnologiyalar asrida boshqaruv samaradorligini oshirish masalasi ham hukumatimizning doimiy e'tibori markazida. Sohani to'liq raqamlashtirish hamda sun'iy intellekt elementlarini joriy etish maqsadida Raqamli ta'lim va sun'iy intellekt rivojlanish markazining tashkil etilishi davr talabiga to'la javob beradi. "Data Hub" texnologiyasi asosida barcha axborot tizimlarining yagona raqamli ekotizimga integratsiya qilinishi ta'lim jarayonlarini boshqarishda ochiqlik,

ulashib" loyihasi haqiqiy ma'naviy xazinadir. Intellektual boy va tafakkuri teran yoshlarga Uchinchi Renessans bunyodkorlari bo'lishini inobatga olsak, oliygo'hlarda ta'lim va tarbiya jarayonlarining o'zaro uyg'un borishi mamlakatimiz xavfsizligi va istiqbolining kafolatidir.

Prezidentimiz farmoni milliy ilm-fan va ta'lim sohasining yorqin kelajagini belgilab beruvchi muhim xarita vazifasini bajaradi. Yuksak saviyadagi mutaxassislarni tayyorlash, oliygo'lar o'rtasida adolatli raqobatni shakllantirish, ilm-fanni amaliyotga, ya'ni tijoratga bog'lash hamda ta'lim sohasidagi raqamli texnologiyalarni rivojlantirish orqali mamlakatimiz yaqin yillarda o'zining mustahkam va daxlsiz intellektual qudratini to'la namoyon etadi. Ziyolilar, olimlar va keng akademik jamoatchilik zimmasiga tushadigan mas'uliyat endi ushbu beqiyos shart-sharoitlardan oqilona foydalanib, yangi O'zbekistonning jahon hamjamiyatidagi o'rini intellektual salohiyat orqali mustahkamlashdan iborat. Istiqbol sari qo'yilgan bunday ulug'vor qadamlar xalqimiz tafakkurini yuksaltirib, porloq va obod kelajagimizning ajralmas qismiga aylanib boradi.



Mulohaza

IRODA VA HAMJIHATLIK HAR QADAMDA NAMOYON BO'LADI

Bugun dunyoda kuchli bo'lish tanlov emas, zaruratga aylandi. Kuch esa, avvalo, sog'lom, irodali va maqsadga intiluvchan jamiyatda namoyon bo'ladi. Bunda sportning o'rni beqiyos. U millat nufuzi, davlat salohiyati va g'alabaga intilishning yorqin ifodasidir.

Yurtimizda ushbu yo'nalishda qilingan ishlar bugun samara bermoqda. Yoshlar orasida sportga qiziqish ortib, sog'lom turmush tarzi keng qaror topmoqda. Natijada yosh avlod jismonan, ma'nau barmakol bo'lib voyaga yetmoqda.

Birgina o'tgan yilning o'zida sportchilarning xalqaro musobaqalarda yuzlab medalni qo'lga kiritib, qator jahon va Osiyo rekordlarini yangilashga erishdi. Ushbu yutuqlar ortida ichkil siyosat, mustahkam infratuzilma va minglab insonning fidokorona mehnati turibdi.

Sportga yangi yondashuv

Shu yil 7-aprel kuni davlatimiz rahbari raisligida o'tkazilgan videosektor yig'ilishida sport sohasini rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Yig'ilishda belgilangan vazifalar sohadagi ustuvor yo'nalishlarni qayta belgilashga qaratilgan bilan ahmaviyatli.

Asosiy maqsad — aholini ommaviy sportga keng jalb qilish va shu orqali jamiyat salomatligini mustahkamlash. Biroq eng muhim yangilik yondashuvda namoyon bo'lmoqda. Endi ommaviy sport samarasi qamrov bilan cheklanib qolmay, insonlar salomatligidagi o'zgarishlar orqali belgilanadi.

Oldinlari asosiy e'tibor qancha odam sportga jalb qilinganiga qaratilgan edi. Yangi tizimda savol boshqacha qo'yilmoqda: ishtirokchilar soni emas, ularning salomatligida qanday ijobiy o'zgarish kuzatilyapti? Demak, raqamlar ortidan quvish emas, amaliy natija ustuvor ahmaviyat kash etmoqda.

Jumladan, har bir tizimda "salomatlik balansi"ni shakllantirish rejalashtirilgan ushbu yondashuvning amaliy ifodasidir. Tizim orqali aholining jismoniy faolligi va salomatlik ko'rsatkichi o'zaro tahlil qilinadi. Masalan, sport bilan shug'ullanuvchilar soni ortishi bilan birga kasalliklar kamaysa, demak, tanlangan uslub samara bermoqda. Aks holda, ish usullarini qayta ko'rib chiqish zarurati tug'iladi.

"Sog'lom hayot volontyorlari" korpusini tashkil etish tashabbusi ham alohida e'tiborga loyiq. Mazkur qadam sog'lom turmush tarzini rasmiy tang'ibot darajasida qoldirmay, jamiyatning kundalik odatiga aylantirishga xizmat qiladi. Chunki odamlar orasida shakllangan odat har qanday da'vatdan ko'ra ta'sirli bo'ladi.

Mahallalar o'rtasida rag'bat muhitini kuchaytirish orqali ommaviy sportga yangi mazmun beriladi. Eng yaxshi natijaga erishgan hududlar qo'llab-quvvatlanadi, faol ishtirokchilar rag'batlantiriladi. Raqobat muhiti esa odamlarning faolligini oshirib, sportni kundalik hayot tarziga aylantirishga xizmat qiladi.



Eng muhim jihat, natijaga qarab baho berish tizimining joriy etilayotganidir. Aholi salomatligi yaxshilansa, kundalik faollik oshsa, kasalliklar kamaysa, qilinayotgan ishlar samaradorligi shunda namoyon bo'ladi.

Murabbiylarga belgilangan yuqori ustama ham sohadagi o'zgarishlarning muhim qismidir. Endi mutaxassislar faqat mashq o'tkazuvchi emas, balki aholi salomatligiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim kadr sifatida qaralmoqda. Bunday yondashuv kash nufuzini oshirib, sohaga malakali kadrlarni jalb etishga xizmat qiladi.

Gap jamiyatdagi ustuvor qadriyatlar o'zgarayotgani haqida bormoqda. Inson salomatligi markazga chiqmoqda. Sport shu maqsadga erishishning samarali vositasiga aylanmoqda. Agar mazkur yondashuv izchil amalga oshirilsa, kelgusida sog'lom avlod shakllanishi barobarida jamiyatning umumiy yashash sifati sezilarli darajada yaxshilanishi mumkin.



Bilimning qiymati — ijtimoiy samarada

Sport sohasidagi ilmiy ishlar endi faqat nazariy tadqiqot bilan cheklanmaydi. Ularning asosiy vazifasi dolzarb muammolarga yechim topish va natijalarini to'g'ridan to'g'ri amaliyotda qo'llashga qaratilgan. Olimlarning izlanishi samara bersa, sportchilarning yutuqlari va xalqaro musobaqalardagi medalni ko'paysa, bunday tadqiqotchilar 100 million so'mlik mukofot bilan rag'batlantiriladi.

Mazkur tizim ilming mohiyatiga qarashni tubdan o'zgartirayotgi. Ilgari ko'p hollarda bu sohada ilmiy faoliyat nazariy izlanishlar bilan cheklanasa, endi u hayotiy natija bilan baholanadigan tizimga aylanmoqda. Ilm "bilish" vositasidan "o'zgartirish" vositasiga aylanmoqda — u hayotdagi voqea va natija bilan ko'rinishi kerak.

Asosiy urg'u dolzarb muammolarga qaratilgan. Sport sohasida bu tayyorgarlik metodikasi, tiklanish jarayoni, psixologiya va yuklamani boshqarish masalalarini ilmiy asosda hal etishdir.

Olimlarning mehnati sportchilar natijasi bilan baholanishi chuqur ma'no'ga ega. Endi bilimning qiymati uning ijtimoiy samarasi orqali o'lchanadi. G'oya qog'ozda qolmay, sportchining yutug'i, medali va rekordida namoyon bo'lishi shart. 100 million so'mlik mukofot esa natija beradigan ilmiy e'tirof etadi. Olimning jamiyatdagi maqomi qayta baholanadi: u faqat tadqiqotchi emas, natija yaratuvchi va taraqqiyotga hissa qo'shuvchiga aylanadi. Bu yondashuv ilm oldiga katta mas'uliyat ham qo'yadi. Samaradorlik himoya qilgan dissertatsiya yoki chop etilgan maqola bilan emas, sportchilarning yutuqlari bilan belgilanadi.

Yangi tizim ilm va amaliyot o'rtasidagi uzilishni bartaraf etib, bilim — qiymat, natija — mezon, amaliyot esa haqiqat sifatida namoyon bo'ladi. Bu sportni nafaqat jismoniy, balki intellektual va ilmiy taraqqiyot maydoniga aylantirish imkonini beradi.

Parasportchilarni qo'llab-quvvatlovchilar e'tiborida

Bugun parasportchilarning yutug'i ko'pchilikni hayratga solayotgani ayni haqiqat. Ular erishayotgan yutuqlar zahirida shaxsiy iroda va matonat bilan birga ularning ortida turib, har qadamda yordam berib, qo'llab-quvvatlaydigan insonlar ham bor. Endi ana shu "ko'rinnas qahramonlar"ning fidoyiligi tan olinadi.

Yig'ilishda Prezidentimiz parasportchilar erishgan yutuqlar ortida ularga tun-un kun hamrohlik qilayotganlarning hissasi ulkan ekanini alohida ta'kidladi. O'quv-yig'inlar, respublika va xalqaro musobaqalarda parasportchilarga hamrohlik qilgan shaxslarning transport va yashash xarajati to'liq qoplanadi. Shuningdek, ularga sport maktabi murabbiylari oyligiga teng miqdorda maosh beriladi. Bu natijaning ortida turgan ko'rinnas mehnatni qadrlash va e'tirof etishdir.

Sportdagi yutuqlarga yagona shaxs mahsuli deb emas, balki munosabatlar va hamkorlik tizimi natijasi sifatida qaraladi. Insonning muvaffaqiyati atrofidagi ijtimoiy muhit bilan o'lchanadi. Bu esa individuallikdan hamjihatlik va hamkorlik tamoyiliga o'tish zaruratini ko'rsatadi.

Hamroh shaxslarning mehnati va mas'uliyati endi to'laonli kasbiy institut sifatida tan olinadi. Ular faoliyatini ichki intizom, aniq maqom va mas'uliyat bilan amalga oshiradi. Bu jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun zarur tizim elementiga aylanadi. Zero, har bir hamrohlik qiluvchi fidoyi inson parasportchilarning irodasini qo'llab-quvvatlaydi va g'alabaning ruhiy poydevorini tashkil etadi. Moddiy rag'bat orqali ma'naviy qadriyat mustahkamlanadi, insonlararo hamjihatlik va birdamlik kuchi jamiyatni boyitadi.

Jismoniy imkoniyatidan qat'i nazar, har bir inson to'liq qo'llab-quvvatlovga ega bo'lishi kerak. Bu adolat, tenglik va birdamlikni mustahkamlaydigan muhim mezonidir.

Sardor TOLLIBOYEV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri



Ta'limning sifati uning ma'naviyat va milliy o'zlikni anglash tuyg'ulari bilan qanchalik sug'orilgani orqali baholanadi. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ular qalbida kitobxonlikka mehr uyg'otish hamda san'at va madaniyatga oshno qilish maqsadida hayotga tatbiq etilayotgan "Ma'rifat ulashib" loyihasi haqiqiy ma'naviy xazinadir.

korxonalarini yagona maqsad yo'lida birlashtiruvchi yaxlit va qudratli tizimni ifodalaydi. Davlat tomonidan ilm-fanni

moliyalashtirish tizimi islohotlar samarasi bo'ladi. Endi muassasalar davlat byudjetidan shunchaki an'anaviy



Ocherk

“JALOLIDDIN MANGUBERDI”:

TARIXIY SHON-SHAVKAT, JASORATDAN YARALGAN BUGUNGI O‘ZGARISHLAR TIMSOLI

“O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyatidan qo‘ng‘iroq bo‘ldi. Toshkent markaziy temir yo‘l vokzalida yangi “Jaloliddin Manguberdi” tezyurur poyezdi qatnovga qo‘yilishi munosabati bilan tashkil etiladigan tadbirga hamda ushbu poyezdda Xivaga borib kelishga taklif qilindim.

Prezidentimiz joriy yil mart oyida Samarqand viloyatiga tashrifi davomida jamoatchilik vakillari bilan Narpay tumaniga aynan ushbu poyezdda borgan va davlatimiz rahbariga uning imkoniyatlari shu tarzda taqdim qilingan edi.

Bugun yurtimizda bo‘layotgan o‘zgarishlar ko‘lami keng. Xalqimiz hayotini farovon etishga qaratilgan loyihalar ko‘p. Shunga yarasha qulayliklar ham kam emas. Toshkentdan Xivaga tezyurur elektropoyezdning qatnovga qo‘yilishi ham shunday sa‘y-harakatlar samarasi.

...Ertalab soat 6:30. Toshkent markaziy temir yo‘l vokzalidamiz. Vokzalni inson hayotining muhim nuqtalaridan biriga, aytaylik, umr chorrahasiga o‘xshatish mumkinmi? Menimcha, mumkin. Chunki inson ham hayotda yo‘lovchi. Umri davomida aynan yo‘lovchi sifatida u yoqdan-bu yoqqa yuguradi, yeladi. Hayotning shirin va achchiq tashvishlarini boshdan kechiradi. Ba‘zan ish va sayohat bahonasida yo‘lga otlanadi. Yo‘lda turli odamlar bilan uchrashadi, muloqot qiladi. Shu bois, vokzallar doim gavjum.

Toshkent markaziy temir yo‘l vokzali ham shunday. Doim yo‘lovchilar bilan to‘la. Kimdir u, kimdir bu manzilga shoshadi. Vokzallarimiz gavjumligining sabablaridan yana biri mamlakatimiz temir yo‘l tizimida yo‘lovchilarga yaratilayotgan qulayliklar, ayniqsa, hududlarni bog‘lovchi “Jaloliddin Manguberdi”dek tezyurur poyezdlarning xalq xizmatiga qo‘yilishi bo‘lmoqda. Buni Toshkent va Xivani bog‘lovchi mazkur poyezdning ilk qatnovi munosabati bilan

yaqin o‘tmishga nazar tashlashning o‘zi kifoya. Axir poyezdga chipta topolmay, vagon yo‘laklarida yo‘lxalta ustida navbat bilan dam olib yoki tik turib manzilga yetib olganlar kam emas oramizda. Transport tizimidagi oqsoqliklar tufayli poytaxtni qo‘ya turaylik, viloyat yoki tuman markaziga borish uchun bir kun yo‘lda yurilgani ham odamlar esidan chiqqani yo‘q. Shunday

Agar bundan o‘n-o‘n besh yil avval, deylik, Urganch yoki Xivaga tezyurur poyezd keladi desangiz, sizni kamida xayolparastga chiqarishlari mumkin edi. Ammo bugun haqiqat shuki, ana shu tasavvur ro‘yobga chiqmoqda. Orzular ushalmog‘da. O‘zgarishlar hammaning ko‘z o‘ngida sodir bo‘lmoqda. Shu o‘rinda temir yo‘l sohasiga oid ba‘zi raqam va dalillarga to‘xtalib o‘tsak. Tizimdagi



sharoitda butun mamlakat transport tizimiga qaratilgan e‘tibor, xususan, yangi temir yo‘llar qurilishi, elektrlashtirilishi natijasida bugun manzilimizga avvalgidan tez va qulay sharoitda yetib o‘laymiz.

islohotlar epkini, ayniqsa, keyingi yillarda seza boshladik. Buni yanada teran anglash uchun davlatimiz rahbarining 2023-yil 10-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi temir yo‘l transporti sohasini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori mazmun-mohiyatiga e‘tibor qaratish joiz. Chunki ushbu qaror asosida “O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyati tizimida keng ko‘lamli transformatsiya ishlari bajarilmoqda. Yangi temir yo‘l loyihalari amalga oshirildi. “Samarqand — Urgut”, “Baitqo‘rg‘on — Parkent”, “Navoiy — Buxoro” yo‘nalishlarida elektrlashtirilgan uchastka yo‘llari bunyod etilib, foydalanishga topshirildi. Ayniqsa, sohada yo‘lovchi tashishni yanada rivojlantirish, aholiga har tomonlama qulay qatnov sharoiti yaratish maqsadida tizimga zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga katta e‘tibor qaratilmoqda. Xorijiy davlatlardan zamonaviy elektrovoz va teplovozlar xarid qilinib, yo‘lovchi vagoni parki yildan yilga yangilanmoqda. “Jaloliddin Manguberdi” elektropoyezdi buning yaqqol misoli.

Tanlov imkoniyatimiz kengayyapti. Qisqasi, mamlakatimiz taraqqiyoti bugungi o‘zgarishlarda, odamlar hayoti va turmushida bo‘y ko‘rsatmoqda. Shunday ekan, tizimdagi katta-yu kichik loyihani har qancha xursandchilik bilan qarshi olsak arziydi.

2026-2030-yillarda “Toshkent yo‘lovchi vagonlarini qurish va ta‘mirlash zavodi” aksiyadorlik jamiyatida ishlab chiqariladigan 200 ta yangi, zamonaviy yo‘lovchi vagonini sotib olish rejalashtirilgan. Unga ko‘ra, har yili 40 ta vagon yetkazib berish ko‘zda tutilgan.

Yo‘lovchilar chiptani onlayn xarid qilishi mumkin. Qolaversa, qo‘shimcha qulayliklar yaratish maqsadida barcha vokzal hududlariga bosqichma-bosqich infokiosklar o‘rnatilmoqda. Natijada zamon talablaridan kelib chiqib, yo‘lovchilarga raqamlashtirish tizimi orqali xizmat ko‘rsatishdan tashqari, navbatlar qisqarib, vaqt tejalandi. Bu tizim yo‘lovchilar gavjum paytlarda — bayramlar, ta‘tillar yoki ish vaqtdan keyin juda samarali. Xizmat ko‘rsatish sifati ham oshadi.

Soat 7:00. “Jaloliddin Manguberdi” poyezdi buyuk sarkarda yurti — Xorazm sari yo‘l oldi. Biz joylashgan vagonida, umuman, butun poyezdda hammaning kayfiyati a‘lo. Barcha yangi loyiha, yangi poyezd bilan bir-birini tabriklaydi. Kamiga xorazmlik san‘atkorlar kuy-qo‘shiqlar bilan ko‘ngillari ko‘taradi.

Transport qanchalik tez harakatlanmasin, yo‘l tanobini suhat tortadi. Shu bois, yonimdagi yo‘lovchi — uzoq yillar temir yo‘l tizimida mehnat qilgan Hasan Mahmudovni gurgungga chorlayman.

— Bugun yurtimiz uchun yaxshi kun, — deydi suhbatdoshim. — Nimaga temiryo‘lchilar uchun demayapman, bilasizmi? Sababi, loyiha tizimni ko‘lishi mumkin, lekin poyezd — xalqni. Bu ishlar o‘z-o‘zidan bo‘lmaydi, albatta. Buning ortida katta mehnat turibdi. Davlatimiz rahbarining xalqni o‘ylab yuritayotgan siyosati mahsuliyat.

“Ishni shiddat bilan boshlasang, yengil ko‘chadi” degan gapni yoshligimda juda ko‘p aytishgan. Shuning uchun hech esimdan chiqmaydi. Temir yo‘l tizimidagi ishlarga ham shunday baho beraman: shiddatli. Bundan esa barchamiz bahramand bo‘laymiz.

— Hozirgi sharoit bilan siz mehnat qilgan davrlardagi farqni nimalarda ko‘rasiz? — deb so‘rayman suhbatdoshimdan.

— Bitta farqini aytaman. Ilgari ishimiz Xorazmda deyilsa, yurak bezillardi. Chunki, birinchidan, masofa uzoq. Ikkinchidan, yo‘llar elektrlashtirilmagan, poyezdlarda sharoit deyarli yo‘q edi. Bir safar cho‘lda teplovozimiz buzilib qolgan. Cho‘lda saratonning issig‘ini tasavvur qilavering. Shunday sharoitda uch soat qolib ketganmiz. Endi bugungi poyezdlarga qarang: odamlar uchun qulay qilib ishlab chiqarilgan. Bularni ko‘rib biz — keksalar, albatta, duo qilamiz.

— Xivagacha borasizmi? — deb so‘rayman tag‘in.

— Yo‘q, Samarqandgacha boraman. Biz, bir guruh nuroniylar Imom Buxoriy majmuasini ziyorat qilish uchun yo‘lga chiqdik. Farzandlarim, nevaralarim aytdi:

ajdodimiz majmuasi juda muhtasham bo‘libdi. Shunday ziyoratgohlarga zamonaviy poyezdlarda borishga nima yetsin!

Islohotlar shiddatiga mos harakatlar, avvalo, odamlarga qulaylik yaratishi bilan ahamiyatli. Yurtimiz temir yo‘l transporti tarixida muvaffaqiyatli loyihalardan biri sifatida e‘tirof etilayotgan mazkur loyiha yurtimizning tarixiy shaharlarini bir-biri bilan bog‘laydi. Samarqand, Buxoro kabi qadimiy shaharlarga yo‘lovchi tushirib, yo‘lovchi oladi. Bu nafaqat mahalliy aholi, balki yurtimizga kelayotgan sayyohlar uchun ham ayni muddao. Kim bilan gaplashmang, fikr so‘ramang, shu gaplarni aytdi. Yurtimizdagi o‘zgarishlarni mamnuniyat bilan ta‘kidlaydi.

Milliy statistika qo‘mitasi ma‘lumotlariga ko‘ra, joriy yilning yanvar-fevral oylarida 156 mamlakattan 1 million 776 ming 336 chet ellik sayohat maqsadida mamlakatimizga kelgan va bu ko‘rsatkich ortib borayotir.

Endi poyezd imkoniyati va qulayliklari haqida. Hozir poyezdlarimiz Toshkentdan Xivagacha bo‘lgan masofani 14 soatda bosib o‘tadi. “Jaloliddin Manguberdi” esa mazkur masofa vaqtini ikki barobar qisqartiradi. Ya‘ni u 1022 kilometrli masofani 7,5 soatda bosib o‘tadi.



Soatiga 250 kilometr tezlikda harakatlanadigan zamonaviy poyezd O‘zbekiston sharoitiga moslashtirilgan. Ya‘ni 50 daraja issiq hamda 40 daraja sovuqda ham ishonchli harakatlanadi. Vagonlarga chang kirmaydi, yuqori va past haroratlarga, qum bo‘ronlariga chidamli tizimlar bilan jihozlangan. Uzoq masofalarga sayohat qilish uchun mo‘ljallangan. Yo‘lovchi o‘rindiqlarni xohishiga qarab, ikki yo‘nalish bo‘yicha burishi mumkin. Vagonlarda kuzatuv kameralari mavjud. Maxsus ekranslarda

harakat xaritasi va tezlik ko‘rsatib boriladi. Poyezd tarkibi uzunligi 175 metr, 7 ta vagonidan iborat, o‘rindiqlar soni 389 ta.

Yangi avlod poyezdining yurtimizga olib kelinishi sohadagi islohotlar ifodasi bo‘lib, aholiga qulaylik yaratish barobarida turizm imkoniyatlarini oshiradi.

Ushbu poyezdlarni yo‘lga qo‘yish uchun temiryo‘lchilar 450 kilometrli “Buxoro — Urganch — Xiva” uchastkasini to‘liq elektrlashtirdi. Shuningdek, “Navoiy — Buxoro” uchastkasida yuqori tezlikda harakatlanadigan poyezdlarga moslashtirilgan 92,12 kilometrli ikkinchi temir yo‘l qurilishi loyihasi yakuniga yetkazildi. Natijada poyezdlar soatiga 250 kilometr gacha tezlikda harakatlanish imkoniga ega bo‘ladi.

Poyezd manzil sari ildamlaydi. Derazadan dalalar, tog‘lar, bog‘lar, qishlog‘u shaharlar manzarasi bir-bir o‘tadi. Manzara xayollarni uzoqlarga olib ketadi. Shu asnoda ma‘lumotlarni ham tahlil qilaman. Xayolimda poyezd tezligini bugun mamlakatimiz temir yo‘l tizimida ro‘yobga chiqarilayotgan loyihalar, o‘zgarishlarga qiyoslayman. Binobarin, tizimdagi ishlar shiddatli. “Jaloliddin Manguberdi” poyezdi manzili aniq bo‘lganidek, ular ham maqsadli loyihalarga asoslangan.

Xalqimizda “Ot — yigitning yo‘ldoshi” degan gap bor. Menimcha, bu bejiz aytilmagan. Sadoqatli tulpori bo‘lmaganida, ehtimol, Jaloliddin Manguberdi Chingizxon qo‘liga asir tushmaslik uchun daryoga sakramasligi, jangu jadallarda g‘alaba qozonmasligi mumkin edi. Nazarimizda, ushbu poyezdda “Jaloliddin Manguberdi” nomi berilishida ham o‘ziga xos ma‘no bor. Birinchisi, poyezdning milliy qahramonimiz ulg‘aygan yurt — Xorazmga qatnashi bo‘lsa, ikkinchisi — u qulay va xavfsiz.

Poyezd tezligi Buxoro cho‘llarida yanada oshadi: eng yuqori nuqtaga — soatiga 250 kilometr gacha yetadi. Manzil sari yaqinlash-yapmiz. Nihoyat, muayyan vaqt o‘tib, avval Urganchga, keyin belgilangan vaqt — soat 14:30 da Xivaga yetib bordik.

Chingizxonday qudratli kuchga qarshi tura olgan, mardonavor kurashgan Jaloliddin Manguberdi qahramonligidan faxrlanamiz. Buyuk sarkarda nomi bilan atalgan ushbu poyezd mamlakatimizga yetkazib berilishi rejalashtirilgan oltita “Hyundai Rotem” poyezdlaridan birinchisi. Poyezd tarkibining O‘zbekiston bayrog‘ini eslatuvchi moviy, yashil va qizil rangli chiziq bilan boyitilgan kishida faxr uyg‘otadi. Poyezd va yo‘lovchilar tantanalari kutib olindi. Xiva vokzali bayramona tus oldi. Kuy-qo‘shiqlar yangradi.

“Jaloliddin Manguberdi” poyezdi “Toshkent — Xiva — Toshkent” yo‘nalishida poytaxtimizdan ertalab 07:00 da jo‘nab ketadi. Xivaga yetib borish vaqti soat 14:31. Xivadan esa ertalab 07:20 yurib, Toshkentga soat 14:51 da yetib keladi. Qatnov kunlari Toshkentdan seshanba, payshanba, shanba kunlariga, Xivadan chorshanba, juma, yakshanba kunlariga to‘g‘ri keladi.

Bu hammasi emas. Ayni paytda temiryo‘lchilarimiz 196,2 kilometrli “Miskin — Nukus” uchastkasida elektrlashtirish ishlarini bajaryapti. U muvaffaqiyatli yakunlangach, kelgusi yildan “Toshkent — Nukus — Toshkent” yo‘nalishida ham “Hyundai Rotem” kompaniyasi poyezdlari harakatlanadigan boshlaydi. Demak, oldinda tuhafalar bisyor.

Dilshod ULUG‘MURODOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalarini tahririyati DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqrib qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas‘ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-546.
30570 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Dilshod Ulug‘murodov
Musahhir: Nasiba Abdullayeva
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy